

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"INNOVATION INSTITUTION" KAFEDRASI

SH.SH.Fayziyeva

**"MINTAQAVIY RIVOJLANISH
STRATEGIYASI"**

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI



Qarshi – 2022

Tuzuvchi:

i.f.n., dots. SH.SH.Fayziyeva

Taqrizchilar:

**QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi dotsenti, i.f.n. S.R.Egamberdiyeva**

**QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi
dotsenti, i.f.n. A.B.Qurbanov**

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanidan ma’ruzalar matni Davlat ta’lim standartining talablari asosida tayyorlangan bo‘lib, unda fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, davlat va jamiyat qurilishi tizimini amal qilishini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, qonun ustuvorligini ta’minalash va sudhuquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarini muvofiqlashtirish va tadbirdorlikni takomillashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishning va ta’lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlariga doir masalalar yoritilgan.

Ushbu ma’ruzalar matnida shu bilan birga mintaqaviy rivojlanishning istiqbollari, sanoat tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari, erkin iqtisodiy hududlarning o‘rni, valyuta-moliya va kredit munosabatlari, xalqaro iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish, mintaqalarda xalqaro tashkilotlarning roli va mintaqaning jahon xo’jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki kabi masalalariga keng e’tibor qaratilgan.

Mazkur ma’ruzalar matni “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining 2022 yil “9” dekabrdagi №7- sonli majlisida, “Iqtisodiyot” fakulteti uslubiy komissiyasining 2022 yil “ 19 ” dekabrdagi № 5 - sonli majlisida va “Iqtisodiyot” fakultetining 2022 yil “ ” dekabrdagi № - sonli kengashida ko’rib chiqilgan va ma’qullangan.

KIRISH

Mintaqalarda fuqarolik institutlarini shakllantirish va fuqarolarning erkinliklarini taminlash, iqtisoliyotning barqaror rivojlanishiga erishish borasida tarixan uzoq yo‘lni bosib o‘tgan xorijiy mamlakatlarning boy tajribasi va qo‘lga kiritilgan yutuqlari aynan shundan dalolat beradi.

Hududlarda transport va kommunikatsiya sohasini, ijtimoiy sohani, ko‘p mehnat talab etadigan sohani hamda aholini ish bilan taminlash imkonini beradigan tarmoqlarni rivojlantirishga katta etibor qaratgan. Shuningdek, mintaqaviy va jahon bozorlariga chiqishni taminlaydigan o‘zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan yo‘llarning loyihibalarini amalga oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek: “Hammaga ma’lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy Kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa o‘z o‘rnida tegishli qarorlar qabul qiladi.

Hokimlarning hududlarni rivojlantirish, mahalliy budgetni ijro etish, kommunal muammolarni hal qilish kabi dolzarb faoliyati ustidan xalqimiz o‘z vakillari orqali tegishli nazoratni amalga oshirishiga imkoniyat yaratib berish bizning eng muhim vazifamiz bo‘lib qolishi zarur. Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas’uliyati davlat apparatini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi”¹

“Joriy yilda yangi zamonaviy mehmonxonalarini qurishga davlat budgetidan 200 milliard so‘m subsidiya ajratib, turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish zarur.

To‘qqizinchidan, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan holda, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kerak.

Orol muammosini hal etishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan tuzilgan Orol dengizi mintaqasida inson xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘p tomonlama Trast fondiga katta ishonch bilan qaraymiz”².

Yaqin kelajakda barcha davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini sotish uchun Internet tarmog‘ida yagona maydon tashkil etish lozim. Bu byudjet xarajatlarini qisqartirish, davlat mulkini samarali boshqarish va katta moliyaviy mablag‘larni iqtisod qilish imkonini beradi. Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlarini va tamoyillari hududiy jihatdan tadqiq etadi, mamlakat umumiyligi rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda hududlar iqtisodiyoti va hududlararo iqtisodiyo aloqalarni o‘rganadi. Bundan tashqari hududlar iqtisodiyo-ijtimoiy rivojlanish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o‘rganadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 22.12.2017 y.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar

Zero, har bir hudud iqtisodiyoti eng avvalo, mamlakat yagona xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

Iqtisodiyot rivojlanar ekan, aholi, turmush darajasi, qashshoqlik va daromadlarni qayta taqsimlashda o‘zgarishlar bo‘ladi. Shu sababli, turli mamlakatlarda aholi soni va tuzilishidagi o‘zgarishlar va rivojlanishning boshqa ta’sirlari o‘rganiladi.

Bundan tashqari talabalar o‘zlarini qiziqtirgan mavzu bo‘yicha tadqiqot savollarini shakllantirishlariga olib keladi.

Ushbu ma’ruzalar matni O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini hayotga tadbiq etish maqsadida davlat talim standartlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘rganish zarurati, sanoat tarmoqlarining milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati, tarmoq ishlab chiqarishning xolati va rivojlanish xususiyatlari, tarmoq resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan boshqaruv prinsipi – usullari, vositalari, shakllari, hamda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va hududiy muammolarning menejment istiqboliga tasiri masalalarini qamraydi hamda magistratura mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan.

1-mavzu. “Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

- 1.1.** “Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari.
- 1.2. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining predmeti, o‘rganish ob’ekti,iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashdagi roli
- 1.3. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining asosiy tamoyillari va usullari
- 1.4.** Milliy iqtisodiyot jarayonlari va uning iqtisodiy ob’ektlarini baholashda makroyondashuv.
- 1.5.** Itqtisodiy fanlar tizimida mintaqaviy rivojlanish strategiyasining o’rni.

1. “Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Bugungi kunda Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirish, iqtisodiy o‘sish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, innovatsion rivojlantirish, iqtisodiyotga investitsiyalar jalg qilish,vazifalarni bajarishni ustivor mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishni talab etadi. Mamlakatda qabul qilingan strategik vazifalarni hal etishga yondashuvlarning ilmiy asoslarni hamda usullarini bilish fanning dolzarbligini asoslaydi.

Fanni o‘qitishdan maqsad - rivojlanish nazariyalarining asosiy g‘oyalari va konsepsiyalari hamda Harakatlar strategiyasida belgilangan O‘zbekistonni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini o‘rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari - O‘zbekistonda qonun ustivorligini ta’minalash, jamiyat va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini bilish, tahlil qilish va ularni amalga oshirishda foydalanish; makroiqtisodiy mutanosiblikni ta’minalash, iqtisodiyot tarmoq va sog‘alarini innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish yo‘llari va usullarini o‘rgatishdan iborat.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlarini va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiyl rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo‘nalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o‘rganadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o‘rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yagona xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

Shu bilan birga, mazkur fan mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo‘jaligi tizimidagi o‘rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o‘rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qiladi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlaydi.

Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo‘jalik majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o‘zaro munosabati tufayli hosil bo‘lgan yaxlit birlikdir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, respublika markaziy boshqaru organlari vazifalarining asosiy qismini mahalliy hokimiyatlar va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklash hamda ularning vakolatlarini oshirish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda (jumladan, 2 palatali parlament tizimi barpo etildi). Shundan kelib chiqib, endilikda mintaqaviy iqtisodiyot fani mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishi, mintaqaviy rivojlanishga va investitsiyalarni joylashtirishga ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy vositalarni aniqlashi lozim.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o‘zining Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida so‘zlagan nutqlarida: «... uzoq va davomli rejalarini, prognozlar va makroiqtisodiy balanslarni tuzmasdan, ustuvor va strategik yo‘nalishlarni aniqlab olmasdan, bu strategiyaga mamlakat iqtisodiyoti rivojining falsafasini bo‘ysundirmasdan bozor iqtisodiyoti o‘zidan o‘zi rivojtopishi mumkin emas»ligi haqida gapirgan. Shundan kelib chiqib, hududiy dasturlar ishlab chiqish va ularni bajarilishi bo‘yicha doimiy monitoringlar tashkil etish hudud iqtisodiyotining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

2. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining predmeti, o‘rganish ob’ekti, iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashdagi roli

Mintaqaviy iqtisodiyotfanining predmeti mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, muhim tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini hamda ularning hudud ichidagi, hududlararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarini o‘rganadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, mintaqaviy iqtisodiyotfanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy jihatlarini o‘rganishdan iborat.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining predmeti hududiy moliya-kredit munosabatlarini va mintaqalardagi qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanish jarayonini ham o‘rganadi.

Bo‘lajak iqtisodchilar iqtisodiy bilimlarining shakllanishi iqtisod fanlari tizimidagi konkret hudud bilan shug‘ullanadigan yagona soha - mintaqaviy iqtisodiyotni o‘rganishdan boshlanishi kerak. Shu narsaga e’tibor berish lozimki, har qanday iqtisodiy faoliyat muayyan hududda ro‘y beradi. Bunda iqtisodchi resurs salohiyati, xo‘jalik tizimi va uning rivojlanish darjasini xususiyatlarini mukammal bilishi zarur.

Shunday qilib, mintaqaviy iqtisodiyot - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini, mamlakat va hududlardagi

ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tabiiy-ekologik sharoitlar bilan bog'liq holda o'rghanadigan fandir.

Bozor munosabatlariiga o'tish davrida O'zbekistondagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari asosiy xalq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko'ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi bu ko'rsatkichlar bo'yicha quyi o'rirlarni egallaydilar. Qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchlarining mavjudligi - Farg'ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo'jaligini xodimlar bilan ta'minlash o'tkir muammo bo'lib turibdi.

Hozirgi paytdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri - iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat.

Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda taraqqiyot darajasi past bo'lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi - ijtimoiy fandir. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rGANADI.

Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko'pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdlorligining o'sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo'naliшlarini belgilaydi.

3. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining asosiy tamoyillari va usullari

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalilanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

Tizimli tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini kompleks o'rGANISH); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o'zaro aloqadorligini o'rGANISH imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tizimlash uslubi. U o'rGANILAYTGAN hodisalarini alohida belgilariga ko'ra guruhlarga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, tipologiya, umumlashtirish va boshqa usullar qo'llaniladi.

Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi. Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o'z navbatida yana 3 tarkibiy qismidan iborat: hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivolantirish yo'llarini mintaqaviy darajada o'rGANISH); tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini geografik aspektida tadqiq etish); mahalliy uslub (ishlab chiqarishni

uning birinchi bo‘g‘ini - alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o‘rganish).

Kartografik uslub. Ushbu uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko‘rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy proporsiyalarini modellashtirish, mintaqa xo‘jaligini tarmoqlar bo‘yicha modellashtirish, mintaqa xo‘jalik majmularining shakllanishini modellashtirish).

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo‘ysunuvchi ierarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - ierarxik pog‘onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma’muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so‘rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo‘yicha faktlarning tahlili va b.q. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o‘rganish nihoyatda ko‘plab usul va vositalarga tayanadi. Ulardan mintaqashunos mutaxassislar o‘zlarining ish jarayonlarida, shu bilan birga, talabalar va aspirantlar kurs, diplom ishlari va dissertatsiyalarini yozish davomida foydalanishlari mumkin.


4.Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Bugungi kunda mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtissodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining predmetlar bilan o‘zaro aloqadorligi.



“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining tadqiqot yo‘nalishlari.



“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining tadqiqot usullari.

tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi d qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, larni joylashtirish xususiyatlarini kompleks o'rganish); oqlar tuzilmasi, ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish ni beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Ians uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida hantiriladi. Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o'z navbatida yana 3 tarkibiy indan iborat: hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlanirish larin mintaqaviy darajada o'rganish); tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini grafik aspektida tadqiq etish); mahalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi g'ini - alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlanirishni o'rganish).

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy proporsiyalarini modellashtirish, mintaqaga xo'jaligini tarmoqlar bo'yicha modellashtirish, mintaqaga xo'jalik majmularining shakllanishini modellashtirish).

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo'ysunuvchi ierarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - ierarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so'rovlari uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha faktlarning tahlili va b.q. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nihoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi.

"Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi" fani quyidagi muammolar o'rganiladi:

- davlatning viloyat, hududlarga nisbatan iqtisodiy siyosati va uning mazmun-mohiyati;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va hududiy boshqaruvni tashkil etish mexanizmi, uni takomillashtirish masalalari;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi;
- strategik rejalashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish strategiyalarini ishlab chiqish muammolari;
- uzoq va o'rta muddatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlashtirish masalalari;
- hududiy ixtisoslashuvning samaradorligi, mintaqaga iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash muammolari;
- mintaqalarni kompleks rivojlanirish va milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatliliginini taominlash masalalari;
- mintaqalar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va iqtisodiy rayonlashtirish masalalari;

- tabiiy-iqtisodiy salohiyat va ishlab chiqarish omillarining hududiy jihatlari

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fanining predmeti

mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar

alohida mintaqqa iqtisodiyoti

hududiy tizimlar

ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari

**iqtisodiy faoliyat, shuningdek, moliya, investitsiya jarayoni, mehnat faoliyati,
turmush darajasining hududiy jihatlarini o‘rganadi.**

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mintaqalarning ichki va tashqi omillarini, tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash, ularning iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan taosirini o‘rganish.
2. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, yuzaga kelayotgan hududiy disproporsiyani aniqlash, uni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish.
3. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarni va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.
4. Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish, hududiy boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy ko‘rsatmalar va takliflarni ishlab chiqish.
5. Uzoq muddatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining konseptual asoslarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqishga ilmiy- uslubiy ko‘mak ko‘rsatish.
6. Respublika hududlarining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish, uning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish.

Mintaqalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

demografik

geografik joylashuvi

tabiiy sharoiti

ishlab chiqarish va resurslar salohiyati

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining obyekti, tadqiqot yo‘nalishlari.

Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot ob'yekti

Bugungi kunda “Mintaqaviy iqtisodiyot” faniida

Mintaqaviy iqtisodiyot fani

turli hududiy-iqtisodiy oboyektlar, jumladan, mintaqalar, iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, qishloq tumanlari bo‘lishi

mintaqaviy diagnostikum, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisobdiy rivojlanishini modellashtirish, prognozlashtirish, dasturlashtirish, strategik tahlil va strategiyalarni ishlab chiqish, hududiy boshqaruv kabi yangi tadqiqot yo‘nalishlari ishlab chiqarish omillarini, mintaqalarning hududiy jihatlari,

iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish qonuniyatlari, hududiy rivojlanish salohiyati va unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o‘rganadi.

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanining asosiy vazifalari



Mintaqalarning ichki va tashqi omillarini, tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash, ularning iqtisodiy o'sishga bo'lgan taosirini o'rganish



Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiylariga baho berish, yuzaga kelayotgan hududiy disproporsiyani aniqlash, uni bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish.



Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarni va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish



Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish, hududiy boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy ko'rsatmalar va takliflarni ishlab chiqish



Uzoq muddatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining konseptual asoslarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqishga ilmiy- uslubiy ko'mak ko'rsatish



Respublika hududlarining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlashtirish, uning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish

Nazorat savollar

1. Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi fani nimani o'rganadi?
2. “Mintaqa” va “hudud” tushunchalarining farqi tushuntirib bering?
3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ushbu mintaqaviy iqtisodiyot fani zimmasiga qanday yangi vazifalar qo'yildi?
4. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalar nimalardan iborat?
5. Mintaqaviy iqtisodiyotning boshqa fanlar bilan aloqalari qanday?
6. Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda qanday ilmiy usullardan foydalilaniladi?

2-mavzu. Mintaqada davlat va jamiyat qurilishi tizimini amal qilishini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

- 2.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.
- 2.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.
- 2.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

2.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.

Joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta MDH raisligi vazifasini olgan edi. Qayd etish joiz, O‘zbekistonning MDHga raisligi muvaffaqiyatli amalga oshirildi va bu jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ushbu natijalarni baholab, ishonch bilan aytish mumkinki, ko‘plab mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatini qiyinlashtirgan murakkab epidemiologik vaziyatga qaramay, O‘zbekiston MDH doirasida juda sermahsul va samarali ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston raisligi davrida 60 ga yaqin ko‘p tomonlama tadbirlar o‘tkazildi, 70 dan ortiq hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2030 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, transport sohasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, turizm, sport va yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlik strategiyalari qabul qilindi.

MDHga a’zo davlatlar iqtisodiy hamkorligining 30 dan ortiq yo‘nalishlari bo‘yicha 2030 yilgacha bo‘lgan davrda MDH iqtisodiy rivojlanish strategiyasi qabul qilingani katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Strategiya tatbiq etilishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi ortadi hamda Hamdo‘stlik davlatlari fuqarolarining farovonligi yanada oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan dasturiy hujjat hamdo‘stlik doirasida umumiyligi transport maydonini shakllantirish, MDH davlatlarida transport koridorlari raqobatbardoshligini oshirish, ularning Yevropa va Osiyo transport tizimlariga integratsiyasini amalga oshirish bo‘yicha siyosatni nazarda tutadi.

MDHda O‘zbekiston raisligining eng muhim yutug‘i sifatida kelgusi o‘n yillikda MDHni yanada rivojlanish konsepsiyasining qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu hujjat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va uzoq muddatli integratsiyalashgan iqtisodiy va siyosiy ittifoqni shakllantirish, har bir a’zo davlatning samarali rivojlanishi uchun belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshishiga olib keladi. Shuningdek, fuqarolarning farovonligini oshirish, jahon miqyosida siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston raisligi yilda 2021 — 2025 yillarda MDHga a’zo davlatlar tashqi chegaralari xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, 2030 yilga a’zo davlatlarning innovatsion hamkorligini rivojlantirish a’zo davlatlar iqtisodiyotini mustahkamlashga olib keladi. O‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalar yuqorida qayd etilgan konseptual va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha muvofiqlashtirish, MDHga a’zo davlatlarning umumiyligi strategik manfaatlari va rivojlanish maqsadlarini teng, o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali hamkorlikning yanada kengayishiga olib keladi. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslari alohida dolzarblik kasb etadi. Davlatimiz rahbari o‘tgan yilning 18 dekabr kuni MDH davlatlar rahbarlari ishtirokidagi sammitda elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha Hamdo‘stlik yo‘l xaritasini qabul qilish, sanoat hamkorlik kompleks dasturi, mehnat migratsiyasi bo‘yicha hamkorlik dasturlari, «MDH mamlakatlari sog‘liqni saqlash marafoni» kabi tashabbuslarni ilgari surgan edi. Qabul qilingan strategik va konseptual hujjatlarni amaliyatga tatbiq etishga qaratilgan ushbu tashabbuslarning amalga oshirilishi MDHga a’zo davlatlarning ulkan salohiyatidan to‘liq foydalanish, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda Hamdo‘stlikda barqaror va progressiv rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha umumiyligi say-harakatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Bu esa, o‘z navbatida, Hamdo‘stlikning ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmi sifatida hayotiyigini, yangi voqelikka moslashishga tayyorligini va MDHga a’zo davlatlar aholisining farovonligi, darajasi va hayot sifatini barqaror oshirishga bo‘lgan umumiyligi istagini tasdiqlaydi.

Umuman, O‘zbekiston Respublikasi Hamdo‘stlikdagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda qat’iy irodasini namoyon etdi hamda MDHdagi raisligi doirasida yuqori natijalarga erishdi. MDHga a’zo davlatlarning say-harakatlarini birlashtirish uchun barcha sohalarda amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni, barqaror rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqdi.

2. Davlat boshqaruvi tizimini isloq qilish.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish yo‘nalishida **38 ta** bandning bajarilishi nazarda tutilgan.

Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasidagi islohotlar natijalari bo‘yicha 2020 yilgi Davlat dasturi doirasida **2 ta** Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo‘shma Qarori, **1 ta** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, **1 ta** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarori, **1 ta** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1 ta** qarori, **2 ta** farmoyishi, **1 ta** Senatning va **1 ta** Vazirlar Mahkamasining chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Shuningdek, Oliy Majlis

palatalari va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi o‘rtasida «Yoshlar parlamenti» faoliyatiga ko‘maklashish to‘g‘risidagi hamkorlik Bitimi imzolandi.

Bundan tashqari, mazkur yo‘nalish doirasida 2020 yilning 1-yarim yilligida keng ko‘lamli ishlar olib borildi.

2020 yil 27 fevral kuni Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo‘shma qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha Parlament komissiyasi tuzildi va uning reglamenti tasdiqlandi.

Parlament komissiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish, muntazam ravishda parlament va jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish, hukumat huzurida tashkil etilgan tegishli Muvofiqlashtiruvchi kengash va mas’ul tuzilmalarning davriy hisobotlarini eshitish, ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi ustidan milliy hamda hududiy darajada o‘rganishlar olib borish, o‘rganishlar natijalaridan kelib chiqib, qonunchilikni yanada takomillashtirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ullanadi.

2020 yil davomida Komissiya tomonidan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 8 tasining amalga oshirilishini o‘rganish nazarda tutilmoqda. Bunda 6600 dan ortiq mahalliy Kengashlar deputatlarining salohiyatidan foydalilaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilarini hisobotini eshitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. 2020 yilning 12 mart kuni O‘zbekistonning Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Polsha, Turkiya, Fransiya, Gretsiyadagi elchilarining hisobotlari eshitildi.

Oliy Majlis Senatining mahalliy Kengashlar bilan hamkorligini yana-da kuchaytirish maqsadida Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlar hududlardagi mahalliy Kengashlarga mas’ul etib biriktirilib, mahalliy Kengashlarda “senatorlar xonalari” tashkil etildi.

Senatning Davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish jarayonlari ustidan hududlar manfaatidan kelib chiqqan holda nazorat olib borish faoliyatini kuchaytirish, davlat byudjeti, iqtisodiyot, pul-kredit siyosati masalalarida senatorlarga professional va xolis axborot-tahliliy, ekspertlik xizmatini tashkil etish maqsadida Senat Kengashining 2020 yil 9 martdagি KQ-19-IV-sonli qaroriga muvofiq Senat devoni tarkibida **Davlat byudjeti, pul-kredit siyosati va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil qilindi**.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarning faolligini oshirish maqsadida O‘zLiDeP, O‘zMTDP, “Adolat” SDP, O‘zXDP va Ekologik partiya fraksiyalarining saylovoldi uchrashuvlarda aholi tomonidan ko‘tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha aniq dastur va “yo‘l xarita”lari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Yoshlarning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini yana-da kengaytirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “**Yoshlar parlamenti**” tuzildi hamda 29 iyun kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi o‘rtasida «Yoshlar parlamenti» faoliyatiga ko‘maklashish to‘g‘risidagi hamkorlik Bitimi imzolandi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish “Yoshlar parlamenti”ning maqsadi etib belgilandi.

“Yoshlar parlamenti” o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, tegishli siyosiy partiyalar va O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga hisobdor bo‘lib, “Yoshlar parlamenti” a’zosi parlamentning vakolatlari muddatiga jamoatchilik asosida saylanadi.

“Yoshlar parlamenti” a’zosiga komissiya tomonidan guvohnoma va ko‘krak nishoni beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatida xalq bilan muloqot qilishning “qayta aloqa” vositalarini keng joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Mazkur dasturga muvofiq Hukumat qarorlari ijrosini tashkil etishda keng jamoatchilik fikrini o‘rganish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy tarmoqlarda Hukumat qarorlari ijrosi bo‘yicha aholi fikrini o‘rganish uchun maxsus sahifalar ochish, hokimlarning tadbirkorlikka oid qarorlarini Hukumat tomonidan monitoring qilib borish va uning natijalari yuzasidan tegishli choralarni ko‘rish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga o‘zgartirish va qo‘srimchalari kiritish to‘g‘risida”gi 219-sonli qarori qabul qilinib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mahalliy dasturlarga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishish tartibi joriy qilindi.

Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri virtual qabulxonasi axborot tizimi – “business.gov.uz” Yagona interaktiv portalini moddiy-texnik jihatdan

takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 214-f-son farmoyishi qabul qilindi. Mazkur xujjatga muvofiq portalni modernizatsiya qilish bo‘yicha texnik talablarni ishlab chiqish, tizim va mobil ilovaning talablarini o‘rganish va tahlil qilish, o‘tkazilgan o‘rganishlar asosida talablarni ishlab chiqish va joriy qilish nazarda tutilgan.

2.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish

“Jamiyat — islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish, aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko‘lamini kengaytirish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, fuqarolar, jamiyat va davlatning o‘zaro yaqin hamkorligini o‘rnatish, shuningdek davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida** Jamoatchilik palatasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar jamoatchilik palatalari tashkil etildi.

Jamoatchilik palatasi jamoatchilik asosida ishlaydigan **50** nafar a’zodan iborat tarkibda shakllantirildi.

- Jamoatchilik palatasi har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida yillik milliy ma’ruzalarni taqdim etadi;
- Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari a’zolari har bir davlat organining ochiq hay’at majlisida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida, «Hukumat soati»da, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlari majlislarida ishtirok etishga haqli;
- Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari davlat organlari va tashkilotlariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan Jamoatchilik palatasi so‘rovini yuborish huquqiga ega. Bunda davlat organlari va tashkilotlari so‘rovga javobni, agar boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, u olingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay yuborishi lozim.

Butun dunyoda bo‘lgani kabi, pandemiya sharoitidagi murakkab vaziyat O‘zbekistonda ham 2020 yilning 1-yarim yilligi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasidagi islohotlarni amalga oshirish hamda avval ko‘zda tutilgan natijalarga erishishga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Biroq, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pandemiya va iqtisodiy inqirozga qaramay, nazarda tutilgan islohotlarni amalga oshirish uchun kerakli choralar ko‘rildi va dastlabki natijalar qo‘lga kiritildi.

O‘z o‘rnida, shuni qayd etish lozimki, Davlat dasturidagi ayrim bandlarning bajarilishi yuzasidan qo‘srimcha muddat talab etilgani hamda sharoit va holatga bog‘liq bo‘lgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi hisobga olinib, **19 ta band** bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilib, normativ hujjatlarni qabul qiluvchi subyektlarga kiritilgan hamda bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

3-mavzu. Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud- huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari

- 3.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish.
- 3.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash.
- 3.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish.
- 3.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish.
- 3.5. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

3.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish.

Sud-huquq islohotlarining asosiga qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumpsiysi kabi prinsiplar poydevor qilib qo‘yilgan.

Shu maqsadda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va erkinligini ta’minalash, odil sudlovning sifati va shaffofligini oshirish, «Xabeas korpus» institutini qo‘llashni kengaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida gapirar ekan, sud tizimining boshqa organlardan xoli bo‘lishi zarurligiga urg‘u berdi.

Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan islohotlar va ularning dastlabki natijalariga mahliyo bo‘lib qolmasdan, jamiyatda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish madaniyatini shakllantirish, shu orqali mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirish, buning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo‘lida og‘ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantirish lozimligi ta’kidlab o‘tildi.

Haqiqatan ham, bunday muhim o‘zgarishlar, sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minalash, ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo‘li yetadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik, sudga bosim o‘tkazgani uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan choralar soha xodimlarining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham, sudlar mustaqilligini ta’minalash masalasi shaxsan Prezidentning qattiq nazoratida bo‘lishi alohida ta’kidlandi.

Muhimi, bu fikrlar amalda o‘z ifodasini topayotgani.

Mamlakatimizda o‘tgan uch yil mobaynida sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish borasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Natijada turli tazyiqlar ostida olingan ko‘rsatmalardan dalil sifatida foydalanishga chek qo‘yildi. Sud ishlarini ko‘rib chiqishda faqat sud tergovi jarayonida atroflicha tekshirilgan va o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanilmoqda.

O‘tgan 3 yilda 1 ming 989 nafar, 2019 yilning o‘zida 859 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi. Shuningdek, 2019 yilda 3 ming 81 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo‘lsa, 2 ming 623 nafar fuqaroga asossiz qo‘yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi va o‘zgartirildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda qonun ustuvorligini va ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minalashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

3.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash.

Jamiyat taraqqiyoti qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Binobarin, Prezidentimizning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan to‘rtta muhim omilga – ya’ni qonun ustuvorligini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik instittlarni shakllantirishga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu omillar inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, shu jumladan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari amalga oshirilishini kafolatlash, sud hokimiyati mustaqilligini ta’minalash, odil sudlovning

samaradorligini, xalqimizning sud organlariga nisbatan qat’iy ishonchi va hurmatini oshirishda yanada to‘laroq namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu Murojaatnomada sud mustaqilligini to‘liq ta’minalash eng muhim vazifalarimizdan ekanligi va sudlar mustaqilligini ta’minalash masalasi bundan buyon ham shaxsan Prezidentning qattiq nazoratida bo‘lishi alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizda o’tgan uch yil mobaynida sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish borasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan 2017 yilning 1 apreldan jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, qamoq tarzidagi jinoiy jazo turi tugatildi, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llashning, shuningdek jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovning eng ko‘p muddatlari 1 yildan 7 oyga qisqartirildi. Shuningdek, jinoyat ishini qo‘shimcha tergov yuritish uchun qaytarish instituti bekor qilindi.

«Xabeas korpus» instituti qo‘llanishini yanada kengaytirish doirasida prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va eksgumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sanksiya berish bo‘yicha vakolatlari sudsiga o‘tkazildi, shuningdek sudsiga qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqi berildi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan yagona sud amaliyotini ta’minalash maqsadida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituvni sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi.

207 ta ma’muriy sud tashkil etildi, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishga qaratilgan tumanlararo va tuman (shahar) miqyosida ham jami 85 ta iqtisodiy sud faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, bu borada ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish maqsadida Sudyalar oliy kengashi ta’sis etildi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 2018 yilning yanvar oyida tasdiqlandi va 2018 yil 1 apreldan kuchga kirdi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu kodekslar dunyoning taraqqiy etgan davlatlarining ilg'or tajribasini chuqur o'rganish, islohotlar jarayonida to'plangan boy tajriba asosida ishlab chiqilgan.

To'rtinchidan, 2018 yil 4 apreldagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Unda Jinoyat kodeksiga dalillarni, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar kiritilgani huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari mansabdor shaxslarining mas'uliyatini yanada oshirdi.

Ushbu islohotlar natijasida turli tazyiqlar ostida olingan ko'rsatmalardan dalil sifatida foydalanishga chek qo'yildi. Sud ishlarini ko'rib chiqishda faqat sud tergovi jarayonida atroflicha tekshirilgan va o'z tasdig'ini topgan dalillarga asoslanilmoqda.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 yanvardagi «Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzurida Sudyalar oliy maktabi tashkil etildi.

Sudyalar oliy maktabining asosiy maqsadi bugungi kun talablarini hisobga olgan holda malakali sudyalar va sudlar apparati xodimlarini tayyorlash hamda odil sudlovning yuqori darajasiga erishishdir.

Oltinchidan, 2019 yil 14 yanvardagi «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning qabul qilinishi jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkini himoya qilishning qonuniy kafolatlarini belgilab berdi.

Qayd etish lozimki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashga doir umumiy qoidalar belgilangan bo'lsa-da, biroq qo'llaniladigan xavfsizlik choralarini turlari, ularni qo'llashning tartibi aniq belgilanmagan edi.

Ushbu Qonunning ahamiyati shundaki, unda jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimi, shuningdek ularni qo'llashning asoslari hamda tartibi aniq belgilandi.

Mazkur Qonun bilan jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilariga nisbatan tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimi nazarda tutildi.

Sud-huquq islohotlari sohasidagi yuqorida ko'rsatilgan tub o'zgarishlar, eng avvalo, mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, odil sudlov samaradorligini oshirish, shu orqali xalqimizning sndlarga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirish va munosabatini o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, ularning amaliyotga joriy etilishi bugungi kunda o'zining aniq samarasini bermoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, o'tgan 3 yilda 1 ming 989 nafar, 2019 yilning o'zida 859 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi.

Shuningdek, 2019 yilda 3 ming 81 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo'lsa, 2 ming 623 nafar fuqaroga asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi va o'zgartirildi.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 7 dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasida sud-huquq islohotlarining navbatdagi yo'nalishlari belgilab berildi.

Xususan, ushbu ma'ruzada 2020 yildan boshlab surishtiruv va dastlabki tergov jarayoni ustidan sud nazoratini o'rnatish lozimligi, ya'ni prokuror qarori ustidan sudga murojaat qilish tartibi joriy etilishi haqida so'z bordi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasin'i qo'llash, uning muddatini uzaytirish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va uning muddatini uzaytirish, eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, pasportning amal qilishini to'xtatib turish kabi tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishga ruxsat berish sudning vakolatiga taalluqli.

Ta'kidlash lozimki, ushbu choralar surishtiruv va dastlabki tergov ustidan to'laqonli sud nazoratini o'rnatish imkonini bermaydi.

Jinoyat protsessida sud nazoratining eng muhim belgisi faqatgina ayrim protsessual va tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat berishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki fuqarolarning konstitutsion huquqlari va erkinliklari buzilishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lган xatti-harakatlar va qarorlar ustidan kelib tushgan shikoyatlarning sud tomonidan ko'riliishi bo'lib hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimizning ushbu takliflari milliy jinoyat protsessual qonunchiligidan mutlaqo yangi sifat darajasiga olib chiqadi. YA'ni, endilikda mamlakatimizda rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qiladigan tartib joriy qilinadi.

Ushbu tartibning joriy qilinishi natijasida jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan boshlab tergovda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni barvaqt aniqlash va ularni zdlik bilan bartaraf etish, fuqarolarni asossiz ayplash, huquq va erkinliklarini noqonuniy cheklashga yo'l qo'ymaslik kafolatlanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda «xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish, qonuniylik va huquqiy tartibotning yanada mustahkamlanishiga erishiladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bunday tajribani joriy etish hayotimizda adolat mezonini mustahkamlashda ulkan qadam bo'ladi.

Murojaatnomada sudgacha bo‘lgan tergov jarayonida inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish maqsadida sud qarorlarini prokuratura tomonidan chaqirib olib o‘rganish amaliyotini cheklash taklifi ham ilgari surildi.

Ma’lumki, sud mustaqilligini ta’minalashga oid xalqaro hujjatlar va milliy qonunchiligidan ko‘ra, sudya odil sudlovnii amalga oshirayotganda sud protsessi barcha ishtirokchilarining protsessual huquqlarini hurmat qilgan holda, har qanday bevosita yoki bilvosita tashqi ta’sirlar, niyatlar, bosim yoki aralashishlardan qat’i nazar, mustaqil harakat qilishi, faqat faktlarni baholashdan kelib chiqishi va ichki ishonchiga asoslanib, qonunga va huquqiy ongiga amal qilishi shart.

Shu maqsadda davlat organlari, boshqa institutlar va xususiy shaxslar sudyalarini majburlash yoki ularni muayyan qarorlar chiqarishga og‘dirish yo‘lida bosim ko‘rsatishdan tiyilishlari kerak.

Shu nuqtai nazardan Prezidentimizning sud qarorlarini prokuratura tomonidan chaqirib olib, o‘rganish amaliyotini cheklash, ya’ni ish yuzasidan shikoyat kelib tushgan holdagini prokuror sud qarorini olib o‘rganishi mumkinligini belgilash bo‘yicha taklifi sud mustaqilligini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan mazkur Murojaatnomada tadbirkorlik sohasida ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan ayrim jinoyat turlarini jinoyat toifasidan chiqarish siyosatini izchil davom ettirish lozimligi, jumladan, soxta tadbirkorlik, raqobatchining obro‘sini tushirish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qilish, shuningdek bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatni biringchi marta sodir etgan, lekin to‘lovlarni to‘lagan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibini belgilash taklifi ilgari surildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish uchun ushbu turdagiligi qonun buzilishini sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoiy ta’qibni emas, balki moliyaviy va fuqarolik-huquqiy choralarini qo‘llash samarali yo‘l bo‘lib hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, ushbu takliflarning amalga oshirilishi kelgusida tadbirkorlarning asossiz jinoiy ta’qibdan himoya qilinishini ta’minalaydi, fuqarolarimizda «tadbirkorlik bilan shug‘ullanish xavfli ekan» degan tushuncha paydo bo‘lishining oldini oladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 2 mart kuni imzolangan «2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5953–sonli Farmon bilan tasdiqlangan Davlat dasturida yuqorida qayd etilgan masalalarni hal qilish vazifikasi qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab berilgan.

Zero, ushbu vazifalar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va

takomillashtirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakatimizda qonun ustuvorligini va ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ezgu maqsadni ro‘yobga chiqarishda esa, sudyalar zimmasiga o‘ta muhim vazifa – odil sudlovnii Konstitutsiya va qonunlardan hamda adolat tamoyilidan og‘ishmay amalga oshirish yuklatiladi.

*Investitsiyalash daromadlarni joriy
iste’mol uchun ishlatmasdan,
ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni
kengaytirish uchun sarflashdir*

Samuelson Pol.

4- MAVZU. MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING ISTIQBOLLARI

- 4.1. O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.**
- 4.2. Hududlarning iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.**
- 4.3. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo‘llari.**
- 4.4. Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo‘llari, kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.**

Tayanch ibora: investitsiya, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi daromadi, yalpi ichki mahsulot

4.1. O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasining majlisidagi O‘zbekistonning o‘tgan 2015 yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokamasi va 2016 yil uchun taraqqiyot yo‘limizning eng muhim ustuvor masalalariga bag‘ishlandi. Ma’ruzada ta’kidlaganidek, 2015 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish izchil, aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirildi. Natijada makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlari ta’minlandi: yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik budjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya’ni prognoz ko‘rsatkichlari

doirasida bo'ldi. 2015yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Aholi daromadlarining ortishi natijasida ichki iste'mol talabi kengaymoqda. Chakana savdo aylanmasi bir yilda 15 foizdan ziyod, pullik xizmatlar hajmi esa 10,8 foizga o'sdi. 2015yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o'rni tashkil qilingan bo'lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi.

2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiyligi qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obekti qurilishini yakunlash va foydalanimishga topshirish imkonini berdi.

2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirilishi natijasida, mamlakat hududlarining makroiqtisodiy barqarorligini yanada ta'minlanishiga hamda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari erishildi. Agar butun O'zbekiston bo'yicha YAIMning o'sishi 108,1%ni tashkil etgan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) bundan yuqori darajada o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Samarqand, Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona va Buxoro viloyatlari qayd etildi. Ushbu hududlardagi nisbatan iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ko'p jihatdan iqtisodiyotning real sektori, jumladan sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining barqaror rivojlanganishi bilan bog'liq.

2014 yilda o'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish indeksi o'sishi Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatildi. Past rivojlanish darajasidagi uchinchi guruhda (indeks 0,500 va undan past) faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi turibdi.

4-jadval

Ахоли жон бошига ЯММ ишлаб чиқариш бўйича худудларнинг гурӯҳланиши

Hududlarni guruhash			
2013		2014	
I guruh (indeks 1,000 va undan katta)			
Toshkent sh.	1,898	Toshkent sh.	1,917
Navoiy vil.	1,829	Navoiy	1,773
Toshkent vil.	1,094	Toshkent	1,096

II guruh (indeks 0,500 dan 1,000 gacha)			
Buxoro viloyati	0,961	Buxoro viloyati	0,970
Qashqadaryo viloyati	0,784	Qashqadaryo viloyati	0,762
Sirdaryo viloyati	0,744	Sirdaryo viloyati	0,742
Andijon viloyati	0,717	Andijon viloyati	0,692
Farg‘ona viloyati	0,605	Farg‘ona viloyati	0,604
Xorazm viloyati	0,563	Xorazm viloyati	0,592
Jizzax viloyati	0,559	Jizzax viloyati	0,565
Samarqand viloyati	0,549	Samarqand viloyati	0,561
Surxondaryo viloyati	0,543	Surxondaryo viloyati	0,553
Namangan viloyati	0,503	Namangan viloyati	0,510
III guruh (indeks 0,500 va undan past)			
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	0,441	Qoraqolpog‘iston Respublikasi	0,441

Ko‘pchilik hududlar iqtisodiyoti tarkibida sanoat va xizmatlar sohasi ulushi o‘sishi bilan bog‘liq ijobjiy siljishlar ro‘y berdi. Shu bilan birga, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Namangan viloyatlari YAHMi tarkibida sanoatning ulushi pastligicha qolib, qishloq xo‘jaligi ustunlik qilmoqda.

5-jadval

Hudularning asosiyijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari

(o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %)

Yalpi hududiy mahsulot

No	Hududlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
1	Qoraqolpog‘iston Respublikasi	106,9	107,7	107,8	107,5	108,2	110,0	112,0	112,7	111,5	108,4
viloatlar:											
2	Andijon	110,2	110,1	110,6	111,3	109,6	110,5	111,3	108,4	110,4	107,5
3	Buxoro	109,9	105,6	109,8	114,5	104,9	109,6	109,1	107,9	108,0	108,2
4	Jizzax	108,3	107,6	107,6	108,1	106,9	110,2	110,6	108,0	110,2	108,6
5	Qashqadaryo	108,0	107,0	109,2	111,2	108,2	103,9	106,3	104,5	105,6	107,9
6	Navoiy	102,2	105,6	104,3	105,0	108,2	102,5	106,1	104,5	104,5	104,0

7	Namangan	107, 0	107, 7	109, 7	109, 0	109, 9	112, 4	110, 0	110, 0	111,2	110, 3
8	Samarqand	106, 1	109, 2	111,2	107, 8	109, 7	113, 6	110, 9	110, 7	110,4	110, 5
9	Surxondaryo	105, 5	110, 0	107, 7	105, 1	106, 8	111,2	110, 9	109, 0	109,5	109, 3
1	Sirdaryo	111,1	101, 5	104, 4	108, 1	105, 2	110, 2	109, 4	109, 9	107,0	107, 0
1	Toshkent	103, 1	108, 5	108, 9	102, 7	106, 4	110, 1	109, 2	105, 2	107,8	107, 5
1	Farg'ona	106, 2	106, 4	106, 2	106, 0	106, 8	105, 8	107, 9	106, 3	109,4	108, 4
1	Xorazm	103, 3	107, 4	106, 3	106, 2	106, 4	110, 2	108, 4	109, 8	109,1	111, 7
1	Toshkent sh.	106, 4	109, 5	111,5	118, 6	113, 0	112, 4	116, 7	110, 2	107,1	109, 0
	O'zbekiston Respublikasi	107, 0	107, 5	109, 5	109, 0	108, 1	108, 5	108, 3	108, 2	108,0	108, 1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi-2015y.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish. Hududlar iqtisodiy o'sishiga asosan sanoat hissa qo'shdi. Hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi yetarlicha yuqori sur'atlarda amalga oshdi. 2014 yil uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati mamlakat bo'yicha 108,3%ni tashkil etgan bo'lsa, Xorazmda – 147,6%, Samarqandda – 115,7%, Jizzaxda – 115,4%, Namanganda – 112,5%, Surxondaryoda, – 112,2%, Farg'onada – 110,2%, Sirdaryoda – 108,6%, Toshkent shahrida – 115,8% va Qoraqalpog'iston Respublikasida – 110,3%ni tashkil etdi. Bu iqtisodiyot tarmoqlari modernizatsiyasi va yirik bo'limgan sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihamlarini amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi Andijon, Navoiy, Namangan viloyatlari va Toshkent shahridan boshqa barcha hududlarda o'sdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinni Navoiy viloyati egallab, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 3,3 barobar ko'pdir. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Navoiy va Surxondaryo viloyati o'rtasidagi farq 13,8 martani tashkil etmoqda.

6-jadval

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

No	Hududlar	200 5	200 6	200 7	200 8	200 9	201 0	201 1	201 2	201 3	201 4
1	Qoraqolpog'iston	118, 4	109, 2	112, 0	110, 7	102, 2	109, 4	112, 1	108, 7	111, 5	110, 3

	Respublikasi										
<i>viloyatlar:</i>											
2	Andijon	134, 5	124, 4	118, 9	124, 0	119, 4	109, 4	108, 3	109, 3	115, 9	105, 5
3	Buxoro	102, 1	101, 9	111, 9	100, 1	104, 2	110, 3	107, 1	104, 8	110, 8	107, 6
4	Jizzax	131, 6	119, 7	109, 2	105, 3	101, 3	119, 3	116, 4	111, 6	112, 2	115, 4
5	Qashqadaryo	101, 3	106, 7	113, 5	118, 9	115, 1	97,6	105, 2	99,2	104, 1	106, 7
6	Navoiy	97,8	101, 1	102, 1	102, 9	101, 5	97,7	101, 9	103, 9	104, 7	102, 8
7	Namangan	114, 0	108, 6	107, 1	110, 7	114, 8	123, 7	116, 1	114, 9	112, 5	112, 5
8	Samarqand	108, 9	121, 2	120, 7	122, 4	111, 6	120, 0	111, 4	116, 3	113, 6	115, 7
9	Surxondaryo	104, 2	109, 2	109, 6	109, 9	108, 9	112, 9	107, 5	107, 1	107, 5	112, 2
10	Sirdaryo	103, 7	113, 8	105, 1	103, 5	103, 3	111, 6	118, 9	107, 4	102, 9	103, 3
11	Toshkent	100, 1	106, 6	113, 3	100, 1	108, 3	109, 2	104, 3	107, 8	111, 6	107, 6
12	Farg'ona	105, 0	108, 8	105, 6	102, 5	105, 8	94,7	101, 3	101, 3	107, 8	110, 2
13	Xorazm	127, 0	108, 6	108, 2	105, 5	100, 0	110, 5	112, 0	111, 4	111, 8	147, 6
14	Toshkent sh.	116, 3	124, 0	121, 1	137, 4	109, 4	116, 4	111, 8	114, 9	110, 4	115, 8
	O'zbekiston Respublikasi	107, 2	110, 8	112, 1	112, 7	109, 1	108, 3	101, 3	107, 7	108, 8	108, 3

Qishloq xo'jaligi. 2014 yil qishloq xo'jaligi uchun nisbatan ijobiy bo'ldi.

Fermer xo'jaliklari o'lchamlarini optimallashtirish va ushbu soha barqaror rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ijobiy natija berdi. 2014 yilda mamlakatda qishloq xo'jaligi o'sish sur'ati 106,9%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichdan yuqori natijalar Namangan, Andijon va Navoiy viloyatlarida kuzatildi. Bu natijalar asosan, don ekinlari, mevalar, sabzavotlar, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish o'sishi hisobiga ta'minlandi.

Aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish indeksi 7ta hududda o'sganligini ma'lum bo'ldi. Qolgan hududlarda bu ko'rsatkich pasaydi.

Hududlarning 9tasida bu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan yuqori bo'ldi. Eng yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatida, eng pasti esa Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatildi. Oradagi farq esa 3,2 martani tashkil etdi.

Investitsiyalar. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar hajmi 9,6%ga o'sdi. Bunda barcha kapital qo'yilmalarning 20,2%dan ziyodini xorijiy investitsiya va

kreditlar tashkil etib, uning deyarli to‘rtdan bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Jami investitsiyalarning 70%dan ziyodi ishlab chiqarish qurilishiga, 40%idan ziyodi mashina va uskunalar sotib olish uchun yo‘naltirildi. Shundan, Jizzax, Navoiy, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridan boshqa barcha hududlarda investitsiyalar o‘sishi kuzatildi.

Nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qayd etildi. Bu esa mazkur hududlarga sanoatni rivojlantirish hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini, jumladan yo‘l va xizmatlar sohasi obyektlarini qurish maqsadida sezilarli investitsiyalarini yo‘naltirilishi bilan asoslanadi.

Ta’kidlash joizki, hududlarda investitsiya jarayonlarining faollashishiga qaramasdan, ko‘pchilik hududlarda, ayniqsa Xorazm, Samarqand, Jizzax, Andijon, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida asosiykapitaldag‘i chet el investitsiyalarining ulushi kamligicha qolmoqda. Chet el investitsiyalarining yuqori ulushiga Buxoro (54,2%), Qashqadaryo (25%), Navoiy(23,9%) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (31,7%) ega, bu ushbu hududlarda sanoatni xususan yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoatini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida to‘plangan. Bu hududlar hissasiga jami investitsiyalarning 60 %dang ziyodi to‘g‘ri keladi. Bu

ko‘rsatkich bo‘yicha eng past darajaga Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari ega. «Navoi», «Angren» va «Jizzax» erkin sanoat hududlarini yaratish bo‘yicha alohida investitsiya faolligini ta’kidlash joiz.

Hududlarda, investitsiya dasturiga asosan umumiyligi qiymati 4,2 mln. dollar bo‘lgan 154 ta yirik ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirildi. Zamonaviy tekstil komplekslari barpo etildi. Hududlardagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining modernizatsiyasi va texnik qayta quronishni amalga oshirildi. Angren-Pop elektrorashtirilgan yangi temir yo‘l qurilishi bitib tugatildi.

2.Hududiylarning iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.

Hududlar rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi molialashtirishning turli xil manbalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: davlat budgeti mablag‘lari; korxonalarning o‘z mablag‘lari; aholi mablag‘lari; chet el investitsiyalari; budgetlardan tashqari fondlarning mablag‘lari va hokazolar.

2014 yilda molialashtirishning barcha manbalari hisobidan 33 trln. 715,3 mlrd. sum miqdoridagi investitsiyalar o‘zlashtirilib, bu o‘tgan yilga nisbatan 9,6 foizga ko‘pdir. Investitsiyalarning umumiyligi hajmida markazlashmagan manbalar ulushi o‘tgan yilgi 80% o‘rniga 79,9%ni tashkil qildi. Kapital qo‘yilmalarning YAIM dagi ulushi 23,3 foizni tashkil etdi.

2014 yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 10 trln. 401,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 7,1 foizga ko‘p. Shu bilan birga manbaning investitsiyalar umumiyligi hajmidagi ulushi 0,7 f.b. pasayoib, 30,9%ni tashkil etdi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 2014 yil davomida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi 15 ta investitsiya loyihasini birqalikda moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lari 439,1 mln. dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga jamg‘arma mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi avval ajratilgan mablag‘larni qo‘shib hisoblaganda, 607,1 mln.dollarni tashkil etdi va 2013 yilga nisbatan 47%ga ortdi.

Chet el investitsiyalarini va kreditlari. Chet el investorlarini jalbqilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishinatijasida, o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini 10,5%gao‘sdi (2310 mln.dollar yoki hisobot davrida o‘zlashtirilgan jami kapitalqo‘yilmalar hajmining 15,8%i). Bir vaqtning o‘zida, hukumat kafolatiostidagi chet el kreditlarining hajmi 639,9 mln.dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan 10,2%ga ko‘pdir.

Tijorat banklarining investitsiya maqsadlarida yo‘naltirilgan kreditlari 13,8%ga o‘sib, 3843,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Kapital qo‘yilmalarning umumiy tarkibida ichki kreditlar ulushi 2013 yildagi 11,0foiz o‘rniga 11,4 foizni tashkil etdi.

Budgetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari o‘tgan yilga nistabatan 9,9%ga o‘sib, 2200,8 mlrd.so‘mni tashkil qildi. Shu bilan birga, budgetdan tashqari fondlarning umumiy o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 6,5 foizni tashkil qildi.

Investitsiyaga yo‘naltirilgan aholi mablag‘lari 10,1 foizga o‘sib, 7350,5 mlrd.so‘mni (umumiy investitsiyalarning 21,8 foizi) tashkil etdi. Bu aholining yuqori investitsiya faolligidan dalolat bermoqda.

Investitsiyalar hajmi o‘sishining foydalanish yo‘nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha dinamikasi. 2014 yilda umumiy investitsiyalar hajmining o‘tgan yilgi 66,8 o‘rniga 66,5%i ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirildi.

Yoqilg‘i-energetika tarmog‘i (131,2%), oziq-ovqat sanoati (126,7), savdo va umumiy ovqatlanish (114,3), qurilish materiallari sanoati (113,4) kabilar eng yuqori sur’atlar bilan o‘sdi. Shuningdek, kommunal xo‘jaligi (114,7%) va uy-joy qurilishi (111,0) sohalarida kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirilishining sezilarli o‘sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, kimyo sanoati (77,4%), mashinasozlik (71,0), qurilish (97,3) hamda transport va aloqa tarmog‘ida (90,1) o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining kamayganligi kuzatildi.

Chet el investitsiyalarining tarmoqlar bo‘yicha tarkibida yoqilg‘i-energetika tarmog‘iga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 35,0 dan 59,9 %gacha o‘sdi. Bir vaqtning o‘zida transport va aloqa tarmog‘i (2013 yildagi 40,3%dan 22,1%gacha), kimyo (3,7dan 0,8%gacha), yengil sanoat (3,6dan 1,3%gacha), mashinasozlik (1,4dan 1,0%gacha) hamda qishloq xo‘jaligi (3,0dan 2,3%gacha) sohasiga yo‘naltirilgan chet el investitsiyalari ulushi kamaydi.

Kapital qo‘yilmalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilmasi. 2014 yildagi kapital qo‘yilmalarning umumiy hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi 57,6%ni, mashina va uskunalarining ulushi –32,0%ni va boshqa harajatlar 10,4%ni tashkil qildi. Bunda Andijon (QMI ulushi 69,4%ni tashkil etadi), Jizzax

(69,8), Namangan (81,4), Samarqand (73,6), Surxandaryo (73,6) va Xorazm (72,3) viloyatlarida investitsiya faolligi yangi asosiy fondlarni tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish hisobiga ta'minlanayotgan bo'lib, bu qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtida Navoiy(mashina va uskunalarga investitsiyalar ulushi 40,3%ni tashkil etadi), Toshkent (42,2) viloyatlarida va Toshkent shahrida (55,1) eskirgan mashina va uskunalarini, real sektordagi korxonalarini texnik va texnologik yangilashga e'tibor qaratilmoqda.

2014 yil davomida 114 mingta ish o'mniga ega bo'lgan 4142 ta yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirildi.

Qurilish materiallari sanoati (1793 ta loyiha), oziq-ovqat sanoati (1689), yengil sanoat va tekstil tarmog'i (1288), mebel va qog'oz sanoati (514), kimyo va neft-kimyo sanoatida (501) loyihalar amalga oshirildi.

Investitsiya tavakkalchiligining yuqoriligi, qolaversa, yanada samarali va tez qoplanadigan pul qo'yilmasi bo'shlig'i to'ldirilmaganligi tufayli hanuzgacha ishlab chiqarishga pul mablag'lari qo'yilmayapti.

Bank sektorida faoliyat ishlab chiqarishda foydalanish uchun mablag'larni katta ko'lamda yo'naltirish maqsadida istiqbolli kredit liniyalari oshishga to'liq qaratilmagan.

Ko'pchilik hududlarda banklarning kapitallashtirish darajasi ham, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya kreditlariga bo'lgan talabiga nisbatan to'lov qobiliyati ham past bo'lganligi sababli o'z ishlaridaetarlicha investitsion yo'nalishlarni topolmayotganliklarini ko'rsatmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroridaaniq ko'rsatilgan. Bu qaror ijrosi respublikada bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish, uning barqaror rivojlanishiga erishish, tijorat banklari ish samaradorligini oshirish, hududlardagi investitsiya jarayonlari va iqtisodiyotni tarkiban o'zgartiradi, chet el investitsiyalari to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishida keng ishtirot etib O'zbekiston hududlarining rivojlanish sur'atlari oshishini ta'minlaydi.

3. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni kengaytirish yo'llari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotiga ko'ra kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy konyunktura o'zgarishlariga tez moslashaoladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiytalab qiladigan, mexanik unumdarligi yuqori bo'lgan xo'jalik sub'ektlaridir. Bu xususiyat kichik va o'rta biznes korxonalarining iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlashdagi mavqeい oshishigaolib keldi. Masalan, AQShning «Millitors» korparatsiyasi xom ashyo va butlovchi qismlarni 30 mingtasini kichik va o'rta biznesdan sotib oladi.

O'zbekiston hududlarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni (KT) rivojlantirish kiradi. Shu nuqtai nazardan ham ularni rivojlantirishni jadallashtirish va YAIMdag'i ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish hamda mahsulot eksportini oshirishda asosiy vazifalar quyidagilar

hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlarni resurslar va sotish bozoridagi ishtiroki doirasini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

2014 yilda kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ish muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar faol davom ettirildi. Eng muhim yo'naliishlar sifatida, «bir darcha» tizimi orqali mulkchilikni ro'yxatga olish, yer uchastkalari olishni soddalashtirish va tezlashtirish, qurilish va elektr tarmoqlariga ularish bo'yicha ruxsatnoma olish, kichik tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida maxsus Jamg'arma tashkil etilishi va boshqalarni e'tirof etish mumkin. Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda ustuvor yo'naliish bo'lib, kreditlar ajratishni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar hisoblanadi. 2014 yilda KT tomonidan yalpi ichki mahsulotning 56,1%ni yaratildi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 0,3 f.b.ga ko'p. Kichik korxona va mikrofirmalarning YAIMdagi ulushi 34,8%ni, yakka tadbirkorlikning ulushi esa 21,3%ni tashkil etdi.

2014 yilda qulay investitsiya siyosati YAIM yaratishda kichik tadbirkorlik ulushi ortishiga olib keldi: jumladan Jizzax viloyatida - 79,9%, Namanganda - 79,7%, Samarqandda - 77,1%, Surxondaryoda - 74,1% va Xorazmda - 73,9%. Yalpi ichki mahsulotda KTning ulushi bo'yicha respublika ko'rsatkichidan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo, Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha qayd etildi.

2014 yilda KT tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin hajmi 13896,9 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati esa 115,5%ni tashkil etib, respublika qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 70,3%ni tashkil etdi. Samarqand, Andijon, Jizzax va Namangan viloyatlarida qurilish ishlari hajmining 90%idan ziyodini kichik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarildi. Shuningdek, Farg'ona, Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari individual qurilish brigadalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ortdi.

2014 yilda KTning mahsulotlar eksporti 9,0 mln.AQSH dollarini, respublika umumiy eksportidagi salmog'i o'tgan yilgi 18% dan 26%ga o'sdi. Respublika umumiy importida KTning ulushi 45,3%gacha (2013 yilda 40,6) o'sdi. KTning umumiy import hajmi 6328,6 mln.AQSH dollarga yetdi.

O'zbekiston 2014 yilda, biznes yuritish sharoitlarini tavsiflovchi reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish ko'rsatkichi bo'yicha esa 61 pog'onaga ko'tarildi. BMT Taraqqiyot dasturi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston biznes yuritishni yengillashtirish bo'yicha so'nggi yilda o'tkazilgan islohotlar bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakati qatoridan o'rin oldi.

Hozirgi kunda respublikamiz aholisi soni 31 milliondan ortiq bo'lib, shundan 57,8 foizga yaqinini mehnatga qobiliyatli yoshdagilar tashkil etadi. Mehnatga qobiliyatli yoshdagagi aholi o'sishining to'rtdan uch qismidan ko'prog'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. Respublika miyisosida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichi yil sayin pasayib bormoqda va bu iqtisodiyotimiz uchun ijobiy holat hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, respublikamizda ishsizlar va ish joyini izlayotganlar bor.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Halqaro mehnat tashkiloti metodologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblariga ko'ra, respublikadagi ishsizlik darajasi 2015 yilning 1 yanvar holatiga 5,1% ni tashkil etdi.

5-diagramma



Shunita'kidlashjoizki, bularrespublika iqtisodiyotida ishsizlikmuammosiyo'q, deganiemas. Demak, o'tish davridagi eng dolzarb muammolardan biri ishchi kuchiga bo'lgan talabning shakllantirilishidir. Albatta, bu muammoni hal etish asosan yangi ishchi o'rinalarini tashkil etishga bog'liq bo'lib, qishloq joylarda esa qishloq xo'jaligidan boshqa sohalar: tadbirkorlik va noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish muhim. Lekin, hozirgi sharoitda barcha ishsizlar uchun yangi ishchi o'rinalarini yaratish juda qiyin. Shu sabali ularning bir qismini eksport qilish lozim.

Ishchi kuchi eksporti – ishchi kuchining biror mamlakatga ma'lum muddatga shartnoma asosida foydalanish sharti bilan sotilishidir. U boshqa eksport tovarlaridan ma'lum muddatga foydalаниishi bilan farq qiladi. Ishchi kuchi eksporti talaygina foydali jihatlarga ega.

Respublikada bandlik muammosining echimi xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqbollari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu nuqtai nazardan, ushbu sohaning rivojlantirilishi uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi, mavjud bo'lgan kichik korxonalarini qo'llab-quvvatlash; kichik biznesning yangi sub'ektlari yaratilishi, norasmiy asosda ishlayotgan kichik korxonalarini asta-sekinlik bilan rasmiy sektorga birlashtirish.


Kichik korxonalarga bevosita moliyaviy yordam ko'rsatish.


Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu kabi faol tadbirkorlar uchun qo'llanilgan multiplikatsiya ta'sirida moddiyishlab chiqarishning turli xil tarmoqlarida va xizmat sohalarida yangi ish joylari yaratish imkoniyatlari ko'payadi. Ishchi kuchining mehnat bozorida davomli taklifi demografik rivojlanishga bog'liq bo'ladi, shu bilan ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohalaridagi bevosita davlat siyosati ta'siriga, soliq, pul-kretid, hududiy siyosatga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bu bandlik ta'minlanishida mehnatni tartibga solish milliy siyosati asosida majmuali yondashuv tushuniladi. Shunga muvofiq, ushbu siyosatning maqsadlari strategiyasi (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) aniqlanadi. Yaqin kelajakdagi tadbirlar dasturi ishsizlarga vaqtincha moddiy yordam ko'rsatish bilan ularga ko'mak berish va ishsizlikning oldini olish masalarini o'z ishiga olishi kerak. Ishchi kuchiga talabni rag'batlantirish, yangi ish joylarini yaratish va sarmoya faoliyatini jonlantirish, ish haqi va daromadlarni tartibga solish o'rta muddatli rejada bosh bo'g'in hisoblanadi.

4.Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'llari, kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlarning asosiy yo'nalishi ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, erkin raqobat muhitini vujudga keltirish, mulkdorlar qatlamini barpo etish kabi sifat o'zgarishlariga qaratilgan. Bu maqsadlarga erishish mamlakat miqyosida bir qator ta'sirchan vositalarning, chora-tadbirlarning ichlab chiqilichini va hayotga tatbiq etilishini taqozo etadi. Bu borada kichik va o'rta biznesni keng rivojlantirish alohida muhim yo'nalishlardan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan ma'ruzasidagi ushbu fikrlarda o'z ifodasini topdi: "eng muhimi esa, biz iqtisodiyot tarkibida kichik, o'rta va xususiy biznes munosib o'rin egallachiga, yaqin ikki-uch yil ichida kichik va xususiy korxonalar sonini ikki baravar ko'paytirib, yalpi milliy mahsulotda ularning ulushini kamida 25 foizga etkazishga erishmog'imiz lozim". Shunday qilib, o'z iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va tarkibiga ko'ra turlicha bo'lган jahon mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilish zarurati va bir qator ob'ektiv sabablar kichik biznes sohasining keng rivojlanishi uchun imkon yaratdi.





Nazorat savollar

- 1 Kichik biznesva xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati qanday?
- 2 Kichik biznes korxonalarining yirik korxonalarga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari qanday?
- 3 Kichik biznes korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilashdan maqsad nima?
- 4 Kichik korxonalar samaradorligi qanday aniqlanadi?
- 5 Kichik korxonalar rivojlanishi bo'yicha qanday xorijiy tajribalarni bilasiz?
- 6 O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlari qanday?
- 7 Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari qanday?
- 8 Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati qanday?

O'rtacha iqtisodiy ko'rsatkichlarni lashtirish - bu suzishni bilmaydigan chiqurligi to'rt futdan oshmaydigan tirjam suzib o'tishiga ishontirishdir.

Fridman Milton

5-MAVZU. MINTAQAsANOAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA IMKONIYATLARI

- 1.Sanoatni respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.**
- 2.Yoqilg'i-energetika majmui.**
- 3.Metallurgiya va mashinasozlik sanoati.**
- 4.Sanoat tarmoqlarini takomillashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.**
- 5.Yengil va oziq-ovqat sanoati.**

Tayanch ibora: og'ir sanoat, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, yoqilg'i energetika, metallurgiya, mashinasozlik

1.Sanoatni respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston xalq xo'jaligini yirik tarmoqlaridan biri sanoat bo'lib unda ish bilan band bo'lgan aholining 1/8 faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ko'p tarmoqli soha, O'zbekistonda uning yuzdan ortiq tarmog'i mayjud. Yalpi ichki mahsulotning 24,1%si sanoatda yaratiladi. Mamlakatimiz sanoati korxonalarida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, qishloq xo'jaligi mashinalari, elektrosvigatellar, akkumulyatorlar, kabellar, ekskavator, yigiruv mashinalari, samalyotlar, mineral o'g'it, sun'iy tola, oltingugurt kislotasi, turli qurilish materiallari, gazlamalar, un, paxta moyi, guruch, kiyim-kechak va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqlarning sanoatda tutgan o'rni har xil.

O'zbekistonda sanoat 3 ta yirik tarmog'dan iborat:

1. Yengil sanoat
2. Og'ir sanoat
3. Oziq-ovqat sanoati

Yalpi ichki mahsulot tarkibida yuqori ko'rsatkich 2019 va 2020 yillardagi kabi 2021 – 2023 yillarda ham xizmatlar sohasiga tegishli bo'ladi. 2021 yilda xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi 35,5, 2022 yilda 35,2, 2023 yilda 34,3 foiz bo'lishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilda 36,2, 2020 yilda esa 35,5 bo'lган.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YAIMdagi ulushi 2020 yilga (29,5%) nisbatan 2021 yilda biroz pasayadi va 29,3 foiz bo'lishi proqnoz qilinmoqda. Ushbu tarmoqning 2022 yilda YAIMdagi ulushi 28,4 foizga, 2023 yilda esa 27,9 foizga tushadi.

Qurilish sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi oshishda davom etmoqda. 2019 yilda ushbu tarmoq 6,6 foiz ulushga ega bo‘lgan edi. 2020 yilda 7 foiz natija qayd etildi. Keyingi yilda ko‘rsatkich 7,1, 2022 yilda 7,5, 2023 yilda 7,6 foizga yetishi kutilmoqda.

Sanoat sohasida ham o‘tgan yilgiga nisbatan tushish kuzatildi. 2019 yilda sanoatning YAIMdagi ulushi 29,1 foiz bo‘lgan edi. 2020 yilda ulush 28 foizga tushdi. 2021 yilda ham o‘sish u qadar yuqori bo‘lmaydi. Sanoatning YAIMdagi ulushi 28,1 foiz bo‘lishi kutilmoqda. 2022 yilda 28,9, 2023 yilda esa 30,2 foizga yetishi mumkin.

Ma’lum qilinishicha, 2022 yilda asosiy tarmoqlar kesimida YAIM tarkibi quyidagicha shakllanadi:

sanoat — 217,7 trln so‘m;
qishloq xo‘jaligi — 207,6 trln so‘m;
qurilish — 52,5 trln so‘m;
xizmatlar sohasi — 300,3 trln so‘m.



2-jadval
Sanoat mahsulotlarining tarmoqqlar bo‘yicha tarkibi (% da).

		1995	2015
1.	Tarmoqlar	1995	2015
2.	Butun sanoat	100	100
3.	Yoqilg‘i energetika majmui	18,3	33,9

4.	Metallurgiya	13,9	11,6
5.	Kimyo va neft	5,2	5,3
6.	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	8,8	19,2
7.	O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyulyoza qog'oz	1,0	1,4
8.	Qurilish materiallari sanoati	4,5	6,4
9.	Yengil sanoat	18,6	14,1
10.	Oziq-ovqat sanoati	9,8	20,9

Manba: O'zbekiston raqamlarda 2015 y.

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat turlaridir. Shu bilan birga kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft qazish va ularni qayta ishlash, ko'mir qazish va elektr quvvati ishlab chiqarish kiradi. Bu majmuaning mamlakat sanoat ishlab chiqarishidagi hissasi 33,9%dan iborat. O'zbekiston jahondagi 10 ta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr stantsiyalari va issiqlik elektr stantsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashvosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi, boyituvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran, alyuminiy xom ashvosi, nodir metallar va boshqa qator qazilma boyliklarning aniqlangan zahiralari ko'p.

O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. Qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinch, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinch o'rinda turadi.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalaridir. Sanoat tarmoqlarida chuqur tarkibiy qayta qurishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol mollarining uchdan bir qismi yengil sanoat korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu yerda an'anaviy yetakchi soha to'qimachilikdir.

2.Yoqilg'i-energetika majmui.

Yoqilg'i-energetika sanoati tarmoqlaridagi o'zgarishlar turli darajada kechmoqda. 1990-2014 yillarda yoqilg'i-energetika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish 3 martaga ordi. Ushbu tarmoqning jami sanoat ishlab chiqarishdagi

ulushi 18,3 foizdan 33,9 foizga chiqdi, mamlakatning yoqilg‘i-energetika mustaqilligi ta’minlandi va tarmoqning qayta ishlash salohiyati kengaydi. Ayniqsa, neft va gaz kondensatini qazib olish yillik hajmi 1990 yilga nisbatan 2014 yilda 1,8 martaga, tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi 1,8, yonuvchi gaz ishlab chiqarish esa mazkur davrda 15,6 barobarga o‘sdi. Bu sanoat tarmog‘i gaz, neft, ko‘mir qazib chiqarish, neftni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. Shulardan biri elektro energetikadir.

O‘zbekiston rivojlangan elektr energetika tizimiga ega. Respublikada umumiyl quvvati 11220 mVt.ga teng 37 elektrostansiya ishlaydi. Shundan 9800 mVt issiqlik stantsiyalariga, 1420 mVt gidroelektrstantsiyalarga to‘g‘ri keladi. Barcha elektrostansiyalar salohiyati bir yilda 56-57 mlrd kVt/s. ga teng elektroenergiya ishlab chiqarishga imkon beradi. Suv elektr stansiyalari orasida eng kattasi Chorbog‘ GES hisoblanadi (quvvati 660 ming kVtdan ortiq). Issiqlik elektrostansiyalari ichida Sirdaryo, Yangi-Angren, Toshkent va Navoiy IESlari har birining quvvati 1000 mVt.dan oshadi. O‘rta Osiyoda eng yirik – Tolimarjon IESining qurilishi davom etmoqda, bir necha yuz kilometrlik elektr uzatuvchi liniyalar ishga tushirildi.

Yangi Angren IESining 7-energiya bloki qurib ishga tushirildi. Sirdaryo IESi modernizatsiya qilindi. Toshkent, Sirdaryo, Navoiy, Taxiatosh kabi yirik issiqlik elektrostansiyalari respublikadagi asosiy elektroenergiyani hosil qilmoqda. Toshkent IESining quvvati 1920 ming kVt ga yaqin, Yangi Angren IESniki 2400 ming kVt (Nurobod shaharchasi). Shuningdek, Angren shahrida Angren - 1 IES (600 ming kVt) ham ishlab turibdi. Mazkur issiqlik elektr stantsiyalari ko‘mir, mazut va gaz asosida ishlaydi. Bugungi kunda mamlakatdagi gidroelektrostansiyalarining umumiyl quvvati 1420 megavatni, elektr tarmoqlarining uzunligi 224 ming kilometrni tashkil etadi. Chorvoq, Xojikent, G‘azalkent, Farhod GESlari elektroenergiyaga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Aynan elektr energiya hosil qilish va uni iste’mol qilish bo‘yicha O‘zbekiston MDH davlatlari ichida Rossiya, Ukraina, Qozog‘istondan keyin to‘rtinch o‘rinda turadi. 2008 yilda ishga tushirilgan uzunligi 165 kmlik Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi-“O‘zbekiston” yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi barpo etildi. Sirdaryo issiqlik elektr stantsiyasini “So‘g‘diyona” kuchlantirish stansiyasi bilan bog‘laydigan, G‘uzor-Surxon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektr ta’minoti obyektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom etmoqda.

Neftni qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining tashkil etilishi respublika energetika xavfsizligini ta’minlay boshladi. Mazkur yoqilg‘i sanoati tarmog‘ining asosiy korxonalari Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida qurilgan. Chunki, respublikadagi 160 dan ortiq neft va gaz konlarining 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provinsiyasida, 27 tasi Farg‘ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan.

Respublika hududidagi Farg‘ona, Oltiariq va Buxorodagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, Muborak va Sho‘rtandagi gazni qayta ishlash zavodlari xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarmoqda va hatto ayrim

neft mahsulotlari chetga eksport ham qilinmoqda. Sho‘rtang neft-gaz zavodida yiliga 125 ming tonna polietilen, 140 ming tonna suyultirilgan gaz, 130 ming tonna yengil kondensat, 4 milliard kub metrdan ziyod gaz va 4 ming tonna oltingugurt olinadi.

Gazni qayta ishlaydigan zamонавиy завод qurishni o‘z таркibiга олган Qандим гурухи конларини, шунингдек Xauzak ва Shodi конларини o‘злаштириш, istiqbolli uglevodorod xom ashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo‘yicha yirik loyiҳalar mavjud. Mazkur loyiҳalardan tashqari Surg‘il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etilishi, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida bug‘-gaz moslamasini qurilishi, Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko‘mir asosida ishlash tizimiga o‘tkazilishi strategik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Yoqilg‘i-energetika majmuida ko‘mir sanoatining o‘rni ham bor. Angren qo‘ng‘ir ko‘mir koni va Surxondaryodagi Sharg‘un, Boysun toshko‘mir konlarining yoqilg‘i balansida ulushi katta. Ularning umumiylari zahirasi 2 milliard tonna. Angren qo‘ng‘ir ko‘mir koni O‘zbekistonda chiqariladigan jami ko‘mirning 95 foizini beradi. Ushbu kondagi ko‘mir qatlamlari orasida joylashgan kaolin asosida “Kaolin” qo‘shma korxonasi ham ishlab turibdi.

3.Metallurgiya va mashinasozlik sanoati.

Sanoat tarmoqlar majumida metallurgiya va mashinasozlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarda ushbu tarmoqning jami sanoatdagi ulushi 21,4 foizdan 30,8 foizga o‘sdi. Qolaversa, 1990-2015 yillarda mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog‘ining o‘sish sur’ati umumiylari 13,0 barobarga teng bo‘ldi. Bu barcha sanoat tarmoqlari ichida eng katta ko‘rsatkichdir. Metallurgiyada rangli metallurgiya yetakchi mavqeini egallaydi. Respublikada ushbu sanoat tarmog‘i asosan mahalliy xom ashyyoga tayangan holda rivojlanmoqda. Shunday korxonalar qatorida rangli, qimmatbaho va nodir metallar ishlab chiqaruvchi Olmaliq, Zarafshon, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlardagi kon-metallurgiya kombinatlari ajralib turadi. Toshkent viloyatining Angren-Olmaliq tog‘-kon sanoati, Navoiy viloyati Muruntov oltin koni, Jizzax viloyati Marjonbulloq, Samarqand viloyatidagi Ingichka konlari va boshqa konlar mazkur tarmoqning negizi hisoblanadi.

Toshkent viloyatining Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Ohangaron-Olmaliq tog‘ kon sanoatida joylashgan mis, qo‘rg‘oshin, rux, polimetall konlari negizida shakllangan. Chirchiqda o‘tga chidamli va qattiq qotishma metallar kombinati, Ingichka volframmi va Qo‘ytosh volfram-molibden konlari rudalari va mis rudalaridan ajratib olinadigan molibdenga tayanib ishlaydi va 100 ga yaqin mahsulot ishlab chiqaradi. Bularidan, “Olmaliq TMK” OAJda mis mahsuloti, sink, oltingugurt kislotasi, Chirchiqdagi “Chirchiq metall qurilmalari” OAJda metallokonstruktivalar ishlab chiqarilmoqda. Hozirda “Xonjiza” konida polimetall rudalarga ishlov berish yo‘lga qo‘yildi. Navoiykon-metallurgiya kombinatining yangi obyektlari barpo etildi. Rangli metallurgiyadan farqli ravishda qora metallurgiya tarmog‘i

nisbatan kam rivojlangan. Sababi, respublikada yirik temir ruda konlarining yo‘qligi, 1944 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan yagona Bekobod qora metallurgiyaning kombinatining faqat to‘plangan temir-tersaklarni qayta ishslash orqali po‘lat va tayyor prokat hamda turli xil maishiy ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashishiga olib kelgan. O‘zbekiston iqtisodiyot tarmoqlari ichida mashinasozlik bugungi kunda o‘ta muhim tarmoq hisoblanadi. Mashinasozlik sanotining 100 dan ortiq korxonalarida turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, ya’ni paxta teruvchi mashinalar, yerga urug‘ qadaydigan, to‘quv-yigiruv, sug‘orish mashinalari, turli xil stanoklar, televizor, audio va videomagnitofonlar tayyorlanadi. Oxirgi 10 yilda yengil avtomobil ishlab chiqarish hajmi 7,1 martaga, avtobuslar 2,6 martaga, yuk mashinalari 12,9 martaga ko‘paydi.

Mashinasozlik sanoatida avtomobilsozlik alohida o‘rin tutadi. Avtomobilsozlik avtomobillar, avtomobil dvigatellari, avtomobilarga ehtiyoq qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘ylgan. Dastlabki yengil avtomobil zavodi 1996 yilda Andijon viloyatining Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda bunyod etilgan edi. Bu "Uz Deu avto Ko" qo‘shma korxonasi "Damas", "Tiko", "Neksiya" va "Matiz" rusumdagagi avtomobilarni chiqara boshladи. Natijada, O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaradigan 28 chi mamlakat bo‘ldi.

Bugungi kunga kelib, Asaka shahrida AQShning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobil ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, Andijonda yana "GM Ozbekiston" QK, "Pritsep" AJ, "UzKodji", "UzTong Xong KO", "Uz Dong Yang Ko", "Uz Sam Yung Ko", "Uz Dong Vong Ko" qo‘shma korxonalar mavjud (aksariyati Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda yaratilgan). "Uz Dong Yang Kompani" qo‘shma korxonasi avtomobil ichki jihozlari o‘rindiq g‘iloplari, Farg‘onadagi "Yevraziya Tapo-Disk" qo‘shma korxonasi avtomobil disklari tayyorlashga ixtisoslashgan. Toshkent viloyatining "Chirchiqqishmash" zavodida kultivator KXU-4B, plugboronalar ishlab chiqariladi. Mashinasozlik va metallni qayta ishslash sanoat tarmog‘iga qarashli qator tajriba va ta’mirlash mexanika va boshqa zavodlar ham faoliyat yuritadi ("Marhamat - ETZ", "Andijonkabel", Avia mexanika zavodi va h.k.).

Mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Spark", "Orlando" yengil avtomobili yaratildi. Shu bilan birga katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" (Germaniya) avtomobillarini Samarqandda, energiya tejaydigan lampalar, "ELJI" rusumdagagi jahonga mashhur xolodilniklari ishlab chiqarilmoqda. Natijada, mashinasozlik va metallni qayta ishslash tarmog‘ida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990-2014 yillarda 11,6 martaga ortdi. 2011 yildan AQShning "Jeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 225 ming dona avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxona qurilib topshirildi.

2014 yilda respublikada jami bo‘lib 220313 dona avtomobil ishlab chiqarildi shundan, 250,7 dona yengil avtomobil, 1217 dona avtobus, 2,2 ming dona traktor, bundan tashqari 241669 dona televizorlar, 68236 dona konditsioner mahsulotlari ham tayyorlandi.

Germaniyaning “Klass” kompaniyasi bilan hamkorlikda zamonaviy, ish unumi yuqori bo‘lgan traktorlar, g‘alla o‘rash kombaynlari va boshqa qishloq xo‘jalik texnikalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatalgan. Respublikada temir yo‘l mashinasozligi ham yaxshi rivojlangan. Bularga, Toshkent temiryo‘lmashta’mir korxonasi, Andijondagi "Uzjeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodlari kiradi. Bulardan Andijondagi "Uzjeldormash" birlashmasi qoshidagi mexanika zavodida yangi vagon sisternalari va ehtiyyot qismlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Joriy yil boshidan buyon 3440 yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va zamonaviy infratuzilma obyektlarini barpo etishga qaratilgan umumiy qiymati 888 mln.dollardan ziyod 76 yirik investitsiya loyihasi foydalanishga topshirildi. “GM-Uzbekiston” aksiyadorlik jamiyatining “Xorazm viloyatida “Labo” avtomobilari ishlab chiqarishni tashkil qilish, “Pomiq” siquv kompressor stantsiyasini modernizatsiya qilish”, “Qultoq” konini takomillashtirish orqali “Motor zavodi” aksiyadorlik jamiyatining bo‘s sh turgan ishlab chiqarish maydonlari bazasida alyumin va plastmassa buyumlari, maishiy texnika uchun ehtiyyot qismlar ishlab chiqarishni tashkil etish, “Jizzax” maxsus industorial zonasiga hududida telekommunikatsiya uskunalariishlab chiqarishni tashkil qilish shular jumlasidandir.

4.Sanoat tarmoqlarini takomillashtuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.

Sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlari tuzilmasini o‘zgartirish va takomillashtirish iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy siyosatning asosiy negizi bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar hamda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyot tovarlarga bo‘lgan talabning qondirilishiga, tovarlar sifatining yaxshilanishiga olib boradi. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minalash uzviy ravishda sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmsining o‘zgarishi hamda yangi tarmoqlarning vujudga kelishi, mavjudlarini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Bu orqali iqtisodiy tizimda, u yoki bu tarmoqda ijobiy siljish sodir bo‘ladi, hamda iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi o‘zgaradi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish vositalari va iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblik o‘rnatish;
- ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendensiyalarini ishlab chiqish;
- tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;
- shaxsiy va ijtimoiy iste’molni o‘rganish hamda aholini sanoat mahsulotlari bilan to‘la ta’minalash;
- tarmoqlarda xom ashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Tarmoqlar tuzilmasini shakllantirishda asosiy e’tibor iqtisodiy rayonlarning barcha tarmoqlarini resurslar, kapital mablag‘lar, xom ashyo va materiallar bilan ta’minalash, mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq tuzilmasining rivojlanish darajasi talabga javob bermaydi. Tarmoqlarning ichki qurilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg‘or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga safarbar qilish vazifalarini xal etish lozim.

Asosiy fondlar strukturasini quyidagi ko‘rinishda tasavvur qilish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan asosiy fondlar;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismi;
- alohida elementlar ulushi.

Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasi to‘la-to‘kis ishlab chiqarish omillari tarkibidan va shu tarkibni tashkil etuvchi elementlarning oqilona variantidan iboratdir. Ana shu omillarning umumiyligi yoki bog‘liqligining muntazam buzilishi milliy iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlariga yomon ta’sir qiladi, ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barkamollashtirishda inson omili alohida o‘rin tutadi. U iqtisodiyot tuzilmasining jadallashtirishning qo‘sishimcha sharoiti sifatida ishtirok etadi, shunda u aholining daromadiga, ishchilarning malakasini oshirishga va boshqa ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi, mutlaqo yangi malakali va ma’lumotli tuzilmani shakllantiradi. Bu masala qanchalik muhim bo‘lmisin, lekin u ham iqtisodiyotni o‘rganish va rejallashtirish amaliyotida o‘z aksini topadi, chunki shu vaqtgacha sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayonida faqat son qiyomatiga e’tibor berilib sifati hisobga olinmagan.

Hozirgi sharoitda, ya’ni iqtisodiyot rivojlanish sur’atini jadallashtirish va xalq turmush darajasini oshirishda tarmoqlararo va sanoat ishlab chiqarishi sohalari bo‘yicha resurslar, kapital mablag‘lar va mehnat resurslarini taqsimlashning shunday yo‘nalishini izlash lozimki, bu yo‘nalish qo‘yilgan ijtimoiy-iqtiosdiy maqsadga mumkin qadar samarali erishish uchun imkon bersin.

Respublika sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mintaqadagi tarmoqlarni har tomonlama tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda yengillashtiradi. Bunday tahlil qilish nafaqat moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini baholashga imkon beradi, balki iqtisodiyotni qayta qurish, ishlab chiqarish strukturasini rivojlantirish va strukturaviy o‘zgartirishlar yo‘nalishini ham belgilab beradi.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish samaradorligi tarmoqlar salmog‘ining oshishini va sof mahsulotning o‘sishini ta’minlaydi. Bu esa milliy daromadga ijobiy ta’sir qiluvchi boshqa omillarni inkor etmaydi.

Milliy daromadning o‘sishiga uch xil yo‘l bilan erishish mumkin:

- bandlik tarkibining o‘zgarishi;
- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini o‘sishi, oshishi;
- tarmoqlardagi asosiy fondlar va investitsiya qiyomatining ko‘payishi.

O‘zbekistonda ko‘p miqdorda foydalanilmagan zahiralar hamda mehnat resurslari mavjud ekan, demak ishlab chiqarish samarasini ko‘paytirishda intensiv omillar bilan birga ekstensiv omillardan ham foydalanish lozim bo‘ladi.

Tarmoq tarkibini respublikamiz miqyosida qulaylashuvi yuqori sur'atdagi iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirishni hamda bir birlik mahsulot ishlab chiqarishning darajasi va yakuniy mahsulotning ko'payishiga umuman ijobjiy strukturaviy siljishlarga sabab bo'ladi. Demak, tarkibiy o'zgarishning o'zi ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumidorligi o'sishining qo'shimcha omili bo'lib maydonga chiqadi.

Shular bilan bir qatorda yuqoridagi barcha omillar o'zaro bog'liqdir. Tarmoq faliyati natijalarining strukturasi ishlab chiqarish omillari funksiyasidan iborat:

$$V=f(F_1 I_1)$$

Bu yerda F-asosiyfondlar

Is-ishchilar soni

$$\text{yoki } V=f(F(F_1 F_2 \dots F_n), Is(I_1, I_2 \dots I_n))$$

Bu yerda Fn-fondlar tarkibi;

In-ishchilarning bandlik strukturasi.

5.Yengil va oziq-ovqat sanoati.

O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, unda paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqariladi. O'zbekiston yengil sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati 1990-2014 yillarda 3,7 martani tashkil etdi. Respublikada 1990 yilga nisbatan 2014 yilda paxtadan ip gazlama ishlab chiqarish 2,4 martaga oshdi. Gilam va gilam mahsulotlari 2014 yilda 21 mln m² ni tashkil etdi yoki 2000 yilga nisbatan 13,6 marta ko'p ishlab chiqarildi. Jumladan, ip gazlama Toshkent, Farg'ona to'qimachilik va Buxoro ip gazlama kombinatlarida ishlab chiqarilar edi. Hozirda bukorxonalariningayrimlario zishfaoliyatinito'xtatgan. Buxoro shahrida "DEUtekstil" to'qimachilikkompleksi, Toshkent viloyatida "Xaytekkabel" qo'shma korxonasi, "Spentex Toytepa tekstil" qo'shma korxonasi, Olmaliqshahrda gilamfabrikasi, "DEU tekstil interneyeshl" QK, "Osiyoteks" va "Xumo", Buxorodagi "Buxoro brilliant shilk"; "O'zkarpet" gilam korxonasi, "Ramstar", "Qorako'ltek" qo'shma korxonalar; Farg'onadagi "Quva tekstil", "Rishton teks", "Rus-O'zbekteks" to'qimachilik qo'shma korxonalar, "Vodiy Toshloq tekstil", "Alest - Glass" "Orshahev tekstili" mchj (paypoq maxsulotlari) va Xitoy texnologiyasi yordamida Xorazmda "Xorazm ipagi" to'qimachilik korxonasi, Buyuk Britaniya asbob-uskunalar bilan jihozlangan Bog'otdag'i tibbiy paxta (momiq) ishlab chiqaruvchi fabrika, Rossiyaning Kamishin fabrikasi bilan hamkorlikda Xonqada ip kalava va ip gazlama ishlab chiqaruvchi korxona, "Gurlantekstil", Xiva gilam kombinati mashhur. Yengil sanoat korxonalaridan Andijondagi "Investeks" qo'shma korxonasi trikotaj buyumlar va trikotaj mato, Toshkent shahridagi "Toshkayatekstil qk" kalava, trikotaj polotnosti, paxta-chit matosi, "Sirkechi tashtekstil" q.k, "Trendyoland" q.k, "Konteks-tashkent" x.k lari trikotaj mahsulotlari, kalava, trikotaj polotnosti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shuningdek, Toshkent viloyatida joylashgan "Billur tekst" korxonasi trikotaj mahsulotlari yiliga - 550

ming dona, "Yangiyo'l paxta tozalash" zavodi paxta tolasi- 10800 tn, "Elnur end Ruslan" qo'shma korxonasi yiliga - 5000 dona tikuvchilik mahsulotlarini yaratmoqda. Ip gazlamadan tashqari ipak gazlama ham bir vaqtlar respublikaning mashhur mahsulotlaridan biri bo'lgan. Hozirda Farg'onadagi pillakashlik fabrikalarida mahsulot chiqarish qisqarib ketganligi munosabati bilan, asosiy ipak gazlama mahsulotlari Samarqand viloyatida tayyorlanmoqda. Mavjud pillakashlik fabrikalari ham to'liq quvvat bilan ishlayotgani yo'q. Toshkentdagi chinni-fayans buyumlar ishlab chiqaradigan "Mikond" zavodi (Oniks birlashmasi) yengil sanoatning yetakchi korxonasıdir. Bu zavodda bir yilda 10500 dona maishiy qandillar, qandil idishlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yengil sanoatda ko'nchilikning alohida o'rni bor. Ko'nchilik sanoati Toshkent, Samarqand, Qo'qon va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan. Bu korxonalar asosan mahalliy xom ashyni qayta ishslash va ishlov berishga tayanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati ko'p tarmoqlarga ega bo'lib geografiyasi kengdir. Undagi mavjud yirik korxonalar respublikaning barcha viloyatlarida uchraydi. 1990-2014 yillarda oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 5,4 martaga o'sdi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari orasida Buxorodagi Kogon yog' - ekstraksiya zavodi, shuningdek, Buxoro yog'-ekstraksiya zavodi, "Yevrosnar" qo'shma korxonalari, "Andijon yog'-moy" zavodi muhim hisoblanadi. Ayni vaqtda, tarmoqda "Xorazm shakar" qo'shma korxonasi va Samarqand choy fabrikasi, Guliston yog'-ekstraksiya zavodi alohida o'rin egallaydi. Aynan shakar ishlab chiqarish respublikada 2000 yilda 10169 tonna bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda 425,5 tonnaga yetdi. Andijon, Toshkent, Farg'ona viloyatlaridagi yog'-moy kombinatlari, Kattaqo'rg'on, Qo'qon shaharlarida va Uchqo'rg'on tumanidagi yog'-ekstraksiya zavodlari respublika aholisining yog'-moy,sovun mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Birgina, Toshkent yog'-moykombinatida qadoqlangan yog', o'simlik yog'i, mayonez, margarin mahsulotlari tayyorlanadi. Shuningdek, Toshkent viloyatidagi "Yangiyo'l yog'-moy" zavodi respublikada yog', sheluxa, kombikorma, sovun ishlab chiqarish bo'yicha mashhur korxonalardan biridir.

Nazorat savollar

- 1.Sanoat tarmoqlari qanday guruxlarga bo'linadi?
- 2.Undiruchi sanoat tarmoqlari qaysilar?
- 3.Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari?
- 4.Agro sanoat majmua qaysi tarmoqlarni o'z ichiga oladi?
- 5.Yoqilg'i-energetika majmuiga kiruvchi asosiy tarmoqlarni ta'riflang?
- 6.Mustqaillik yillarida sanoatimizda qanday yangi tarmoqlar vujudga keldi?
- 7.Sanoat tarmoqlari tuzilmasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
- 8.O'zbekistona eng sifatli ko'mir qaysi konda qazib olinadi?

6-mavzu. Mintaqada erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni

§ 6.1. Erkin iqtisodiy xududlarning mohiyati va ko'rinishlari

Erkin iqtisodiy xudud xaqida tushuncha birinchi marta 1973 yil 18 maydag'i Kioto konvensiyasida berilgan. Unga ko'ra erkin iqtisodiy xudud deb – mamlakatning bir qismini ya'ni tovarlar importi va eksportini, bojxona va soliq cheklarlisiz olib kirish mumkin bo'lgan xududga aytildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 5 – sessiyasida qabul qilingan "erkin iqtisodiy xudud to'g'risida"gi qonunning 1 – moddasida esa quydagicha tarif berilgan: - "Erkin iqtisodiy xududlar deb – mintaqani jadal ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida xuquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan xududga aytildi".

Umuman olganda erkin iqtisodiy xududlarning 30 ga yaqin turi bo'ladi. Ulardan keng tarqalganlari: erkin savdo xududlar, erkin bojxona, erkin ishlab chiqarish, erkin ilmiy – texnik xududlardir. Bularning xar biri erkin iqtisodiy xudud toifasiga kirgani bilan o'z funksiyasiga ko'ra bir biridan farq qiladi.³

§ 6.2. Erkin iqtisodiy xududlarni yaratishda jahon tajribalari

Xozirgi kunda dunyoda 400 tadan 2000 tagacha erkin iqtisodiy xudud mavjud deb hisoblanadi. Birinchi erkin iqtisodiy xududlar AQShda 1934 yili erkin savdo xududi ko'rinishida tashkil etilgan.

Buyuk Britaniya qo'shma qirolligi – xududida tashkil etilgan kompaniyalar faoliyati va soliq tizimi xalqaro maydonda takomillashgan sistemalardan biri bo'lib, bu qonun qoidalar ayniqsa offshor zonalarning roivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonun 1965 yilda Moliyaviy qonun (Finance act) asosida qabul qilingan bo'lib, Buyuk Britaniya iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatuvchi barcha kompaniyalar uchun amal qiladi.

Belize mamlakatining janubiy qismi xisoblanmish Korsol rayonida 1994 yilda erkin savdo zonasini tashkil etildi. Mazkur savdo zonasining asosiy maqsadi quydagilardan iborat bo'lib hisoblanadi:

birinchidan: chet ellik diplomatlarga ulgurji va chakana savdo xizmatlarini tashkil etish;

ikkinchidan: chet elga safarga ketayotgan ssudnolarga tovarrlarni sotish yoki ayriboshlash;

³ Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 474 с.

uchichidan: bojxona xizmatlarining nazorati asosida tovarlarni suvda, quruqlikda va xavo liniyalari orqali eksport qilishni tashkil etish;

to‘rtinchidan: ulgurji tovarlarni bojxona xizmatlarining xududida saqlab berish va olib kirishni amalga oshirish;

beshinchidan: tovar mahsulotlarini bir tadbirkordan olib ikkinchi tadbirkorga sotish ya’ni vositachilik funksiyalarini bajarish.

Xozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biri bo‘lmish - Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti ham asosan erkin iqtisodiy xududlarda amalga oshirilgan islohatlar tufayli yuzaga kelgan va aynan Xitoy Xalq Respublikasi xozirgi kunda erkin savdo xududlarini tashkil etishda eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakat hisoblanadi.

§ 6.3. Xitoy EIH modeli xususiyatlari

Xitoy mamlakati – o‘zining rivojlanishi, tarixi va mukammalligi, ishbilarmonligi borasida faqatgina bizning Respublikamiz ishbilarmonlari uchun emas, balki butun dunyo ishbilarmonlari uchun ham sirli bir mamlakat bo‘lib qolmoqda. Shu bila birga xozirda bu mamlakat dunyoda iqtisodiy o‘yg‘onish va rivojlanish sohalarida ham muvaffaqiyatga erishmoqda. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytib o‘tmoqchi edik – ki Xitoyning YAMMSi xozirgi kunda deyarli AQShning YAMMSi bilan tenglashib qolganyu Bu ko‘rsatgichga esa asrlardirki xech qaysi mamlakat iqtisodiyoti yaqinlasha olmagan.

Erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish Xitoy Xalq Respublikasida Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan 1979 yilning o‘rtalarida ko‘rib chiqilgan. Tashkilotchilarning fikriga ko‘ra erkin iqtisodiy xududlar “tashqi dunyoga oyna” bo‘lishi kerak edi. Xozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasida tashkil etilgan erkin iqtisodiy xududlar dunyodagi eng omadlilaridan biri bo‘lib xisoblanadi.

Xozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasida 5 ta maxsus erkin iqtisodiy xududlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shulardan uchtasi: Shenchjen, Chjuxay va Shantou Butun Xitoy Xalq vakillari yig‘ilishining Doimiy komissiyasi qarori bilan 1980 yilda tashkil etilgan bo‘lib, Guandun provinsiyasida faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘sha yilning oktabr oyida Fuszyan provinsiyasida Samen erkin iqtisodiy xududdi tashkil etildi. Beshinchi iqtisodiy xudud bo‘lib xisoblangan Xaynan provitsiyasi – Bututn Xitoys Xalq Vakillari yig‘ilishining 7 – chaqiriq 1 – sessiyasi qaroriga asosan 1988 yilning aprel oyida tashkil etilgan.

§ 6.4. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish imkoniyatlari va mavjud istiqbollar tahlili

Erkin iqtisodiy xududlarini tashkil etishda mamlakatimizda ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Eng asosiylari sifatida 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “erkin iqtisodiy xududlari” to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni (02.12.2008 y. N PF-4059) kabilarni keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida MDH mamlakatlarida birinchi bo‘lgan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etilmoqda. Erkin industrial-iqtisodiy

zonaning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim jihatlardan biri – bu uning yonida joylashgan transkontinental intermodal xab bo‘lib, u 2009 yil yanvaridan buyon yuk tashish bo‘yicha dunyoda yetakchi sanalgan “Korean Ayr” kompaniyasi tomonidan boshqarilmoqda.

Shuningdek, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga quyidagilar ruxsat etildi:

ular o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va kontraktlar bo‘yicha hisob-kitob va to‘lovlarni EIZ hududida xorijiy valyutada amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlarning haqini erkin almashtiriladigan valyutada to‘lash;

eksport va import qilinadigan tovarlar uchun haq to‘lash va hisob-kitob qilishning ularga qulay shartlari va shakllaridan foydalanish.

Umuman “Navoiy” EIZ O‘zbekistonda faoliyatini boshlagan dastlabki tajriba bo‘lib, uning qanday rivojlanishi albatta mamlakatimiz iqtisdiyotida juda katta rol o‘ynaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Erkin iqtisodiy hudud deganda nimani tushunasiz?
2. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan maqsad nima?
3. Qaysi mamlakatlarning EIH tashkil etish bo‘yicha tajribalarini bilasiz va ularning xususiyatlari?
4. Offshor hududlarning savdo hududlaridan farqi nimada?
5. Navoiydagagi EIZning istiqbolini qanday baholaysiz?

7-mavzu. Mintaqada valyuta – moliya va kredit munosabatlari

§ 7.1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi

Jahon iqtisdiyotida xalqaro valyuta munosabatlari pulning jahon puli funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi. Pul jahon puli sifatida tashqi savdo va xizmatlar, kapital migratsiyasi, foydaning investitsiyalarga ko‘chishi, zayom va subsidiyalar berish, ilmiy-texnik almashuv, turizm, davlat va xususiy pul ko‘chirishlariga xizmat qila boshladi.

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) jahon xo‘jaligi doirasida valyuta munosabatlarini tashkil qilishning shaklidir. U jahon kapitalistik xo‘jaligi evolyusiyasi natijasida paydo bo‘lib, huquqiy jihatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirilgan. Xalqaro valyuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iboratdir:

- valyuta birliklarining milliy va kollektiv zahiralari;
- xalqaro likvidli aktivlarning tarkibi va strukturasi;
- valyuta paritetlari va kurslari mexanizmi;
- valyutalarning o‘zaro almashuv shartlari;
- xalqaro hisob-kitob shakllari;
- xalqaro valyuta bozori va jahon oltin bozori rejimi;

- valyuta-moliya tashkilotlarini (XVF, XTTB va boshqalar) tartibga soluvchi davlatlararo valyuta-kredit tashkilotlarining maqomi.

§ 7.2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valyuta tizimi dinamik rivojlanib boruvchi tizimdir. U evolyusion rivojlanish bosqichlarda doimo o‘zgaradi va rivojlandi. O‘zining evolyusion rivojlanishida Xalqaro valyuta tizimi to‘rtta xalqaro valyuta tizimlarini o‘zida namoyon qiluvchi to‘rt bosqichni bosib o‘tgan.

Xalqaro valyuta tizimida oltin standart deb ataluvchi birinchi tizim stixiyali ravishda XIX asr oxirida vujudga keldi.

Ikkinci tizim - oltin-deviz standarti Genuya konferensiysi (1922 y.) qarorlari natijasida vujudga keldi. Keyinchalik u ko‘pchilik kapitalistik davlatlar tomonidan tan olindi. Bunda banknotalar oltin emas, balki keyinchalik oltinga almashtirilishi mumkin bo‘lgan boshqa davlatlar deviziga (banknota, veksel, cheklar) almashtirilgan.

1944 yilda bo‘lib o‘tgan Bretton-Vuds (AQSH) xalqaro konferensiyasida bu tizim huquqiy maqomni oldi.

Bretton-Vuds kelishuvi xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini eng muhim bosqichi hisoblanadi. Birinchi marta xalqaro valyuta tizimi hukumatlararo kelishuvlarga asoslana boshladi. Oltin-dollar standarti tizimini mustahkamlangan Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo oborotining kengayishda, sanoati rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishining o‘sishida ham muhim rol o‘ynadi.

1976 yilda Kingstonda (Yamayka) bo‘lib o‘tgan XVFning navbatdagi majlisida dunyoda xalqaro valyuta tizimining asoslari aniqlandi.

§ 7.3. Xalqaro rezerv valyuta birliklari

90-yillarning boshiga kelib suzuvchi kurslar faktorini amalga oshirilishi munosabati bilan quyidagi elementlar asosida yetarli darajada murakkab bo‘lgan xalqaro valyuta tizimini tashkil qilish sxemasi vujudga keldi:

1. Asosiy ustun birliklar tanlanadi. Bu bilan ular milliy valyutalar munosabatlarini, aniqrog‘i o‘z valyuta kurslarini saqlab qoldilar;

2. Valyuta kurslarinig o‘zgarish darajasi bir xil bo‘lmasdan, diapazoni keng edi. Bunda ma’lum diapazon doirasida faqat ayrim valyutalarga nisbatan valyuta kursi saqlanadi, boshqa valyutalarga nisbatan kurs erkin o‘zgarib turadi.

Yevropa valyuta tizimida (YEVT) YEI har bir a’zosi valyutasining EKYuda hisoblangan asosiy kursi belgilangan. Mana shu asosiy kurs negizida valyutalarning o‘zaro kursi hisoblanadi. Bu kursdan kurslar amalda 2,25% dan ortiq farq qilishi mumkin emas. YEVTga qo‘shilgan ispan peseti uchun imtiyozli rejim va Italiya lirasi uchun 1993 yil avgustidan 15% gacha o‘zgarishlar chegarasi o‘rnatalgan.

EKYU yaratishdan maqsad - ayrim YEIga a’zo davlatlarni valyuta kurslarining barqarorligiga erishish edi. EKYuni yaratishning undagi muhim tomonlaridan biri AQSH dollarining oltinni o‘rnini bosish uchun yetarli darajada ishonchli emasligidir.

§ 7.4. Yevropa valyuta tizimi

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining tuzilishi yagona Yevropa valyutasini yaratishni ko‘zda tutmagan edi. Ammo 70-yillarning o‘rtalariga kelib yagona valyuta ittifoqini tuzish yo‘llarini qidirish faollashdi. Yevropa hamjamiyati liderlari nafaqat AQSH dollariga muqobil valyuta birligini yaratish, balki valyuta intervensiyasini amalga oshirish, valyuta o‘zgarishlarini davlat tomonidan nazorat qilishni amalga oshirishga harakat qildilar.

Murakkab muzoqaralar natijasida YEI doirasida 1979 yilning martida Yevropa valyuta tizimi (YEVT) tashkil topdi. YEVT - umumiy iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi, iqtisodiy integratsiya doirasida milliy valyutalarning ishlashi bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimidir. YEVT - jahon valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

1990 yilda Yevropa valyuta tizimi kengaydi. Unga Angliya, Ispaniya, Portugaliya kirdi. 1991 yilda yagona Yevropa hududini tashkil qilish haqidagi Maastricht shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq YEI a’zolarining hukumat boshliqlari valyuta ittifoqini tuzish haqida kelishib oladilar.

§ 7.5. Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari

Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari jahon xo‘jaligidagi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning juda muhim bo‘g‘inlaridan biridir. XX – XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon mamlakatlarida moliya bozorlari gurkirab rivojlandi. Dunyoning ilg‘or davlatlari umumiy moliya aktivlari, ularning yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) nisbatan 2,5 barobarga o‘sdi. Jahon valyuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati esa dunyoning ilg‘or davlatlari umumiy aktivlari, ularning yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 2,5 barobar tez o‘sdi. Jahon valyuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati 1980 yildagi 10:1 dan 1992 yildagi 60:1 gacha o‘sdi. Shu bilan birga, xorij ekspertlarining fikricha, davlat obligatsiyalarining xalqaro bozori ba’zi bir kattaliklar bo‘yicha faqatgina 1920 yildagidek faoldir. Kapitalni harakatchanligi asr boshidagi darajaga yaqinlashmoqda, xolos.

Nazorat uchun savollar:

1. Valyuta kursi qanday aniqlanadi?
2. Valyuta pariteti nima?
3. Jahon valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib bering?
5. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimada?
6. Yamayka tizimini vujudga kelishining sabablari nimada?
7. Yevrodollar nima?
8. Yevroning kiritilishi YEI davlatlari va shuningdek, jahon iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
9. Xalqaro moliya bozorlaridagi tendensiyalarni gapirib bering.

9-MAVZU. MINTAQADA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

§ 9.1. Iqtisodiy integratsiya mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiy integratsiya-mamlakatlar o'zaro iqtisodiy hamkorligining natijasi bo'lib, u xo'jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Iqtisodiy integratsiya bir qator obyektiv omillarga asoslangan bo'lib, ular orasida quyidagilar muhim o'rinni tutadi:

- 1) Xo'jalik hayoti baynalmilashuvining o'sib borishi.
- 2) Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi.
- 3) O'z xususiyatiga ko'ra umumjahon ilmiy-texnika inqilobi.
- 4) Milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining oshishi.

§ 9.2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart – sharoitlari va uning bosqichlari

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlarini tahlil qilamiz. Ular quyidagilardir:

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlari idagi yetukligi darajasining yaqinligi.
 - Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning jo'g'rofiy yaqinligi, ko'p hollarda umumiyligi chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy adoqalarning mavjudligi.
 - Rivojlanish, siyosiy hamkorlik va shakllar sohasida mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi.
- Ustunlikni namoyish qilish samarasi.
- "Domino samarasi".

Integratsiya jarayonlari shakllari va bosqichlari

Integratsiya
tiplari

Belgilari

1.	Pereferensial savdo kelishuvlari	O'zaro savdoda tariflar va boshqa to'siqlar olib tashlanadi. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan milliy tariflar saqlanadi. Davlatlararo boshqaruv organlari tuzilmaydi.
----	----------------------------------	--

2.	Erkin zonalari savdo	Bitim shakli. Bunda qatnashchilar bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarini olib tashlash to'g'risida ahdlashadilar. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan har kimning o'z siyosati mavjud bo'ladi. Misol uchun: NAFTA, ANZERTA. ilgarigi Yevropa iqtisodiy hamjamiyati.
3	Bojxona ittifoqi	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona siyosati. Biroq bunda ham jiddiyroq ichki qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati buning misoli bo'lishi mumkin.
4	Umumiy bozor	Ishtirokchi mamlakatlar o'rtaida ishlab chiqarishning barcha harakati uchun to'siqlarni to'liq bartaraf etish. Iqtisodiy siyosatni to'liq kelishish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tenglashtirish kabi masalalar qal etish jarayonida turadi.
5	To'liq iqtisodiy integratsiya	Yagona iqtisodiy siyesat ia buning oqibati sifatida qonunchilik bazasini birxillashtirish. Shartlari: umumiy soliq tizimi; yagona standartlarning mavjudligi; mehnat to'g'risidagi yagona qonunlar va boshqalar.
5.1.	Iqtisodiy ittifoq	Yuqori iqtisodiy rivojlanish bosqichida paydo bo'ladi. Iqtisodiy siyosat (hatto yagona iqtisodiy siyosat) kelishiladi na shuning asosida barcha to'siqlar olib tashlanadi. Davlatlararo (davlatlardan yuqori turuvchi) organlar tashkil etiladi. Barcha qatnashchi mamlakatlarda yirik iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi.
5.2.	Valyuta ittifoqi	Iqtisodiy Ittifoq shakli va ayni bir uning yirik qismi. Quyidagilar valyuta ittifoqining xarakterli belgilari hisoblanadi: - Milliy valyutalarning kschishilgan (birgaliqdagi) muomalasi; qatnashchi mamlakatlarning Markaziy bankirlari tomonidan maqsadga qaratilgan holda qo'llab-quvvatlanadigan qatiy begilangan valyuta kurslarining o'rnatish; ushbu xalqaro valyuta birligining emissiya markazi hisobdangan yagona mintaqaviy bank shaklantirilishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta ittifoqi deganda kliring bitimlari tushuniladi.

§ 9.3. Iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiyotiga ta'siri

Viner va Biyelarning konsepsiyasidan bir juda muhim xulosa kelib chiqadi. Agarda bojxona ittifoqi tarifning uni man qiluvchi darajaga olib keluvchi kattaligida tashkil qilinayotgan bo'lsa, bojxona ittifoqining o'rnatilishi batamom savdoni tashkil etilishiga olib keladi. Lekin agarda N mamlakat bojxona ittifoqiga erkin savdo rejimidan o'tsa, u holda bojxona ittifoqining yaratilishi natijasi batamomsavdodan chetlanishga olib keladi.⁴

Savdoni «tashkil etish» va «sadodan chetlanish» tushunchalari xalqaro savdoning «sof» nazariyasi doirasida paydo bo'ldi. Ular butunlay sun'iy shartlar va farazlar asosida qurilgan. Bunda Yevropa ittifoqi oddiygina bojxona ittifoqi doirasidan anchagini kengroq ekanligi hisobga olinayotgani yo'q. Shu sababli, yevropa integratsiyasining samarai batamom savdoni tashkil etish – savdodan chetlanish samarasi bilangina aniqlanib qolmaydi.

Integratsiya dinamik samaralariniga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarish masshtablarini kengaytirish hisobiga hosil bo'ladigan iqtisod.
- Firma va sohalarga nisbatan tashqi bo'lgan iqtisod.
- Qutublanish samarasi samarai.
- Real investitsiyalar va hajmlarni joylashtirishga ta'sir.
- Umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sir.

§ 9.4. G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojpanishi jarayonini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillar oxiri — 70-yillar o'rtasi). Hamjamiyat xayotidagi "oltin asr" hisoblanadi. Ushbu bosqich bojxona ittifoqining muddatidan oldin tashkil etilishi yagona agrar bozorning nisbatan muvaffaqiyatli shakllantirilishi, YEIga uchta yangi mamlakat: Buyuk Britaniya, Danya, Irlandiyaning kirishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar o'rtasi — 80-yillar o'rtasi) YEI tarixiga Yevropa valyuta hamkorligi dasturi qabul qilinishiga, tashqi siyosiy kelishuvlarga muvaffaq bo'linganligi sifatida kirdi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi — 90-yillar boshi) — Hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi bo'ldi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi ilgari mavjud bo'lgan mamlakatlararo nomutanosiblikning keskinlashuviga olib keldi.

To'rtinchi bosqich (XX asrning 90-yillari o'rtasi — XXI asr boshi) da Yagona Yevropa Aktiga muvofiq 1993 yil I yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari ichida ishlab chiqarish omillarining erkin xarakat qilishi joriy etildi. Amalda

⁴ Шемятенков В. Европейская интеграция М.: Международные отношения. 2003. 245 стр.

hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy makon paydo bo‘ldi, bu YEIning iqtisodiy integratsiyaning sifat jixatidan yangi booqichiga kirganligini anglatar edi.

Maastricht shartnomasi asosida (1992 yil fevral) 1994 yil 1 yanvardan boshlab YEIH qatnashchi mamlakatlari soni 15 ta bo‘lgan Yevropa Ittifoqiga aylantirildi. YEI doirasida to‘liq yagona ichki bozor tashkil etish amalga oshirildi. Bundan buyongi integratsiya hamkorligi maqsadlari e’lon qilindi. Ular yagona valyuta — yevro emissiyasi xuquqi bilan yagona Yevropa banki, ichki chegaralarsiz yagona G‘arbiy Yevropa makoni barpo etilishini o‘z ichiga olar edi.

§ 9.5. Amerika qit’asida integratsiya jarayonlari rivojlanishining xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida integratsiyaon markazlardan biri Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi — NAFTA tashkil etilishi va uning faoliyat ko‘rsatishi rivojlanayotgan integratsiya jarayonlaridan biridir.

Shartnomaning asosiy qoidalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- AQSH, Kanada, Meksika o‘zaro savdo qiladigan tovarlarga bojxona poshlinalarini bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorini o‘z tovarlarini Meksika orqali AQShga qayta eksport qilish yo‘li bilan Amerika poshlinalaridan xalos bo‘lishga urinuvchi Osiyo-Yevropa kompaniyalarining ekspansiyasidan himoya qilish;
- Meksikada bank va sug‘urta ishida Amerika va Kanada kompaniyalarining raqobatiga va kapital qo‘yishiga taqiqni qilish;
- atrof-muhitni qo‘riqlash bilan bog‘liq muammolarni xal qilish uchun uch tomonlama guruxlar tashkil etish.

§ 9.6. Osiyo-Tinch okeani mintaqasıda integratsion jarayonlarning xususiyatlari

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi integratsion jarayonlarining uchinchi eng yirik markazi hisoblanadi.

Deyarli 30 yil mobaynida Janubi-Sharkiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN) muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmokda. Unga Osiyodagi to‘rtta "ajdaxodan biri — Singapur, shuningdek, "yangi to‘lqin" — yangi industrial mamlakatlar — Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kiradi. Ushbu guruh doirasida o‘zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN katnashchilari bo‘lgan ko‘pchilik mamlakatlarning shiddatli iqtisodiy o‘sishi, ular rivojlanishini taqqoslash mumkinligi, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va uzoq, tarixiy an’analarga ega bo‘lgan o‘zaro savdo aloqalarining mavjudligi, shuningdek, hamkorlik shakllarining tartibga solinishi bilan mustahkam bog‘liqdir. ASEAN rejalarida 2000 yilgacha qatnashchi mamlakatlар bojxona poshlinalarini 38 ming turdagи tovarlar bo‘yicha o‘rtacha 5 foizga pasaytirish rejasи mavjud edi. 1995 yil oxirida 2000 yilda, voqealar ko‘ngildagidek rivojlangan takdirda 2002 yilda erkin savdo znasi barpo etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.

§ 9.7. O‘zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etishi va O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritishi davlatimizning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnini mustahkamlashning muhim shartidir.

O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lib kirgan eng muxim birlashmalardan biri - Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi (MDH) bo‘lib, u 1991 yil dekabrda tuzilgan. Xozir MDH ga Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belorus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qирг‘изистон Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina kiradi.

Hamdo‘stlik maqsadlari quyidagilar:

- demokratik xuquqiy davlatlar tuzish, ular o‘rtasidagi munosabatlar davlat mustaqilligini va suveren tenglikni o‘zaro tan olish va xurmatlash, o‘z takdirini o‘zi belgilash xuquqi, teng xuquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik, har qanday tazyiqlardan voz kechish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, inson xuquqlari va erkinliklarini, shu jumladan kichik millatlar xuquqlarini xurmat qilish, majburiyatlarini va bjshqa umum tan olingan xalqaro xuquq tamoyillari va normalarini halol bajarish asosida rivojlanadi;
- bir-birlarini hududiy butunligini va mavjud chegaralar buzilmasligini tan olish va xurmat qilish;
- chukur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan xalqlarning tub manfaatlarini hamda qo‘sniqchilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;
- fuqarolararo va millatlararo totuvlikni saqlash.

O‘zbekiston Respublikasi 1992 yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT) a’zosi bo‘ldi. IXT Afg‘oniston Islom Davlati, Ozarbayjon Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Kozog‘iston Respublikasi, Pokiston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni birlashtiradi. 1992 yilda Texronda oliy darajadagi IXT uchrashuvi paytida e’lon qilingan axborotda IXT a’zolarining iqtisodiy farovonligi yo‘lida ko‘ptomonlama mintaqaviy hamkorligini ko‘zda tutuvchi maqsadlar va vazifalar e’lon qilindi.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning qanday bosqichlari xarakterlab bering?
3. Erkin savdo hududlarini tavsiflab bering.
4. Integratsion jarayonlar milliy davlatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini xarakterlab bering.
5. YEI qachon va qaysi davlatlar tomonidan tashkil etildi.
6. Jahondagi integratsion birlashmalar haqida siz nima bilasiz?
7. NAFTAni tuzilishidan asosiy maqsad nima va unga qaysi davlatlar a’zo?

10-MAVZU. MINTAQANING RIVOJLANISHIDA XALQARO TASHKIOTLARNING ROLI

§ 10.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tasniflanishi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar murakkab iqtisodiy mexanizm sifatida bir tomonidan bozorga xos o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lsa (XIMning moddiy asosi hali ham jahon bozori hisoblanadi), ikkinchi tomondan, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, alohida mamlakatlar va hududlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni osonlashtiruvchi davlatlararo tuzilmalarni yaratishni talab etadi. Ayni paytda shuni qayd etib o‘tish kerakki, birinchi (1914-1918 yillar) va ikkinchi (1939-1945 yillar) jahon urushlari orasida xalqaro tashkilotlarni gurkirab vujudga kelish jarayoni (shu davrd Xalqaro mehnat tashkiloti, o‘zining «Inkoterms» kabi tijoriy hujjatlari bilan taniqli bo‘lgan Xalqaro savdo palatasi, Xalqaro hisob-kitoblar banki tashkil etilgan) va ayniqsa 40-yillarda ikkita to‘qnashuvni boshidan kechirgan davlatlar tarixidagi favqulotda holatlar va 1929-1932 yillardagi chuqur iqtisodiy tanazzul bilan bog‘liq.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

1. Insonlar hayotining bir biriga bog‘likligining yanada o‘sishi;
2. Sanoat revolyusiyasi va ilmiy yutuqlar insonlarni bir- biridan ajratib turgan masofalarni qisqartirishi va xalqaro munosabat va hamkorlikni kengaytirishi;
3. Savdo, valyuta- moliya munosabatlari, kapital bozori umuman iqtisodiy o‘sish;
4. Davlatlarning barcha sohada bir – birlariga bog‘liqligining o‘sishi;
5. Duyodagi umumiy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini chuqrroq anglash.

§ 10.2. Jahon xo‘jaligidagi global tashkilot Birlashgan millatlar tashkiloti tizimi

BMT shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan bo‘lib, uning tarkibida 190 dan ortiq a’zo-mamlakat mavjud. BMT nizomining 1-moddasida tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlari ichida, «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar harakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish» maqsadi ham yetakchi o‘rinda turadi. BMT iqtisodiy sohada asosan quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha faoliyat olib boradi:

- global muammolarni hal etish;
- davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko‘maklashish;

- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarni yengib o'tish;
- hududiy rivojlanishni rag'batlantirish.

§ 10.3. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Hududiy iqtisodiy tashkilotlar

IHTT ikkinchi jahon urushidan keyin AQShning moliyaviy yordamidan samarali foydalanish va ko'hna qit'adagi tiklanish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotining vorisi hisoblanadi. «Boylar klubi», jahon iqtisodiyotining «aql markazi» deb ataluvchi IHTT hozirgi kunda jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan 29 ta mamlakatini o'z tarkibiga birlashtirgan. Chunonchi, bu tashkilotga a'zo-mamlakatlar hissasiga jahon tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning 2/3 qismi to'g'ri keladi.

IHTTning oliv kengashi bo'lib, uning tarkibiga har bir a'zo-mamlakatdan bittadan vakil kiradi. Kengash a'zolar oyda bir marta Bosh kotib raisligida uchrashishadi. Bundan tashqari Kengash vazirliklar (tashqi ishlar vazirligi, moliya vaziligi, iqtisodiyot vazirligi kabilar) miqyosda yillik majlislarni ham o'tkazib turadi. Doimiy asosda ish yurituvchi Ijroiya qo'mitaning asosiy vazifasi IHTT faoliyatini nazorat qilish va Kengash majlislarini tayyorlashdan iborat. 200 dan ortiq qo'mitalar, ishchi guruhlari va ekspert komissiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy harakterda bo'lgan keng doiradagi masalalar bilan ham shug'ullanadi.

Jahonda integratsion jarayonlar – YEI, NAFTA, MERKOSUR, MDH kabilar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'limgan o'nlab hududiy miqyosdagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar mavjud. Ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmlarini o'rghanish maqsadida biz G'arbiy yarim shar va Afrika qit'asidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) va Afrika Birdamlik Tashkiloti (ABT) to'g'risida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) 1948 yilda Bogota shahrida (Kolumbiya) o'tkazilgan Amerika davlatlarining 9-chi xalqaro Anjumanida tashkil etilgan bo'lib, o'z tarkibiga 35 davlatni birlashtirgan.

1994 yilda Amerika qit'asidagi 34 mamlakat (Kubadan tashqari) davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvda «taraqqiyot va rivojlanish» maqsadida hamkorlik tamoyillari: demokratiya, erkin savdo va amerikada barqaror rivojlanish to'g'risida dekloratsiya» qabul qilindi. Ushbu anjuman qatnashchilari kelajakda – 2005 yildan so'ng Panamerika erkin savdo hududini tashkil etishga qaror qilishdi.

ABT hududiy siyosatiga tavsif berganda, 1991 yilda a'zolar-mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Afrika iqtisodiy hamjamiatini tashkil etish to'g'risidagi bitimni eslatib o'tish kerak.

§ 10.4. Jahon savdo tashkilotining jahon xo'jaligidagi rivojlanish yo'nalishlari va uni mamlakatlar iqtisodiyotidaga ahamiyati

Jahon savdo tashkiloti (JST) 1995 yilning 1 yanvarida tashkil topdi. JST ko'p tomonlama savdo tizimlarining xuquqiy va institutsional asosidir. U muhim shartnomaga majburiyatlarni ta'minlaydi. Bu shartnomaga majburiyatlari hukumatlarga

ichki qonunchilikni shakllantirish va amalga oshirishda, shuningdek tashqi savdoni boshqarishni aniqlab beradi. JST 1947 yilda tashkil topgan va 1948 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT)ning davomchisi hisoblanadi.

§ 10.5. JSTning tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solish uslublari

Jahon amaliyotida tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishni tarif va notarif uslublari mavjud bo'lib, ularni qay meyorda va qay ko'lamda qo'llanilishi har bir davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi. JST talablariga ko'ra barcha tashqi savdo operatsiyalari imkon qadar tariflar yordamida, ya'ni bojxona bojlari asosida tartibga solishni maqsadga muvofiq.

JST xalqaro savdo palatasi, BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi, Jahon taraqqiyot va tiklanish banki, AQSH tarif komissiyasi hamda turli olimlarning notarif uslublarini turkumlashga o'zgacha yendashuvlari mavjud.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qanday tasniflanadi?
2. BMT va BMT tizimidagi tashkilotlarning jahon xo'jaligidagi roli qanday?
3. Xalqaro hududiy tashkilotlar va ularning funksional vazifalari nimalardan iborat?
4. JSTga a'zo bo'lish bosqichlarini xarakterlab bering.

11-mavzu. Mintaqaning jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki

§ 11.1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari

O'zbekistonning jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilish jarayoni obyektiv tuzilmaviy shart-sharoitlar yetilgan va tashqi iqtisodiy aloqalarning xo'jalik mexanizmi isloq qilina borgan sari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Respublika noyob tabiiy boyliklarga, kudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, aqliy va ma'naviy salohiyatga ega. Tarixning o'zi O'zbekistonning o'rmini G'arbni Sharq bilan, Janubni Shimol bilan bog'laydigan Yevroosiyo yo'llari chorrahasida belgilagan. Bizning Respublikamiz Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko'prigi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu ko'prik doirasida tovarlar, texnologiyalar, sarmoyalar va madaniy qadriyatlarning xarakati va almashuvi uchun yaxshi sharoit yaratilgan.⁵

⁵ Жаҳон иқтисодиёти. Назарова Г.Г.,Халилов Х.Х., Ҳанова И.М.,Ҳакимов Н.З., Бобоҷонов Б.Р. Т.: МЧЖ "RAM-S", 2007 й

Butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha gaz kondensati zahiralarining 74 %, neftning 31 %, tabiiy gazning 40 %, ko'mirning 55 %ni O'zbekiston xissasiga tugri keladi. Tabiiy gaz qazib olish bo'yicha respublika MDH mamlakatlari ichida uchinchi o'rinda va dunyodagi bu sohaning kuchli yetakchi 10 mamlakatlari qatorida turadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda va MDH doirasida paxta yetishtiruvchi asosiy mamlakat bo'lib hisoblanadi. Agar butun Markaziy Osiyo mamlakatlari 2 mln. tonna paxta tolasi yetishtirsa, uning 1,4 mln. tonnasi o'zbek tolasidir. O'zbekiston paxta tolasi yetishtirish bo'yicha dunyoda turtinchi o'rinda, uni eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi.

Xozirgi vaqtida O'zbekiston MDHning bir necha yirik shaharlari va jahonning 20ta davlati: AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa davlatlar bilan bevosita xavo yo'llari orqali bog'langan.

O'zbekistonning xalqaro bozorga mustaqil sur'atda chiqishi va dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuvi sharoitlarida uning boshlang'ich iqtisodiy salohiyati jahon xo'jaligiga samarali qo'shilish istiqbollariga umid qilish imkonini beradi.

§ 11.2. O'zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi

Hozirda O'zbekiston qator obro'li va jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlarning teng xuquqli a'zosi, jahonning o'nlab davlatlari bilan do'stona aloqalarini bog'lagan, yirik bank va moliyaviy organlar bilan hamda nodavlat va nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 43 ta chet davlatlarning elchixonalari, 15 ta hukumatlararo va 49 ta nohukumat tashkilotlar akkreditatsiya qilingan.

"Mintaqa iqtisodiyoti" fani mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanish va tarkibiy tuzilishiga tasir etadigan omillar, hudular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari va ularni guruhlashtirshi, hududlarni tabiiy va iqtisodiy salohiyati, mintaqa moliyaviy mablag'lari va ularning shakllanish xususiyatlari, mahalliy byudjetning tushumlari va xarajatlari, xalqaro iqtisodiy birlashmalar va transmilliy korporatsiyalarning hududiy iqtisodiyotdagi roli, hududiy rivojlanishning yangi paradigma va konsepsiylari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va undagi jarayonlarni modellashtirish, yalpi hududiy mahsulotni hisoblashning jahon tajribasi, mintaqa iqtisodiy salohiyatini baholash va undan samarali foydalanish yo'llari, ishlab chiqarish, meniral xom-ashyo, yer-suv va mehnat resurslarini baholash usullari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning usul va dastaklari, hududiy byudjetdan tashqari fondlar, hududiy o'z-o'zini moliya bilan tabminlash, hududlarning moliyaviy resurslari, mintaqalarda atrof muhitni muhoqaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni o'rganish va bashorat qilish imkonini beradi.

§ 11. 3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy

tashkilotlar bilan hamkorlikning ta'siri

O'zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo'jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'tish davri muammolarini hal etishni, shuningdek ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Bu narsa kreditlar olishda, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Mustaqil O'zbekiston 30 ta obro'li iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'ldi. Bularning jumlasiga Jahon Banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar, shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro Valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot Banki, Islom taraqqiyot banki, Butunjahon bojxona tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti, Paxta bo'yicha xalqaro konsultativ komiteti va boshqa tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Respublika xozirgi kunda BSTga a'zo bo'lish uchun qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining jahonning yetakchi mamlakatlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalarining rivojlanish istiqbollarini tavsiflab bering.
2. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan olib borayotgan aloqalarni xarakterlab bering?
3. O'zbekiston Respublikasining Jahon banki guruhi bilan munosabatlarini ochib bering.
4. O'zbekiston JSTda qanday maqomga ega?
5. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish bosqichlarini xarakterlab bering.

MINTAQAVIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI FANIDAN GLOSSARIYLAR

<i>Atamaning o'zbek tilida nomlanishi</i>	<i>Atamaning ingliz tilida nomlanishi</i>	<i>Atamaning rus tilida nomlanishi</i>	<i>Mazmuni</i>
<i>Akselerator</i>	<i>Accelerator</i>	<i>Акселератор</i>	Iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmio'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich. Akselerasiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investisiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezirarli o'sishi investision faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha. iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlari qiymati.
<i>Aktivlar</i>	<i>Assets</i>	<i>Активы</i>	foydalinish jarayonida asbob-uskunlar qiymatining eskirgani sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizasiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizasiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizasiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi.
<i>Amortizasiya</i>	<i>Depreciation</i>	<i>Аммортизация</i>	Bu korxona tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun

<i>Alternativ variantlardan tanlov</i>	<i>Tradeoff</i>	<i>Компромисс</i>	
<i>Asosiy fondlar va ularning bahosi</i>	<i>Capital stock</i>	<i>Акционерный капитал</i>	mahsulotlarni sotish orqali mablag' tulash imkonini beradi.
<i>Asosiy narx</i>	<i>Base price</i>	<i>Базисная цена</i>	tanlab olingan variant al'ternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyasiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish xaqining oshishi orasidagi tanlov muammozi.
<i>Byudjet taqchilligi</i>	<i>Budget deficit</i>	<i>Бюджетный дефицит</i>	turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.
<i>Band aholi</i>	<i>Employees</i>	<i>Занятое население</i>	xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.
<i>Bandlik darajasi</i>	<i>Rate of employees banking</i>	<i>Уровень занятости</i>	davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.
<i>Bank krediti</i>	<i>credit</i>	<i>Банковский кредит</i>	ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi.
<i>Belgilangan almashuv kursi</i>	<i>fixed exchange rate</i>	<i>Фиксированый обменный курс</i>	bandlar umumiyl sonining mehnatga layoqatli yoshdag'i aholiga nisbati.
<i>Byudjet soliq siyosati</i>	<i>fiscal policy</i>	<i>Фискальная политика</i>	daromad (%) ko'rinishida foyda olish uchun bank tomonidan qarzga pul berish.
			milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o'zgarmas tizim.
			byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan holda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin:

<i>Bozor munosabati</i>	<i>market clearing</i>	Рыночные отношения	soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar sotilishidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan bank emissiyasi hisobiga yopilishidan. SHunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosatini yuritadi.
<i>Bank rezervlari</i>	<i>reservers</i>	Резервы банка	bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.
<i>Baho, narx</i>	<i>prise</i>	Цена	bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.
<i>Bozor narxi</i>	<i>market price</i>	Рыночная цена	tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.
<i>Giperinflyasiya</i>	<i>hyper-inflation</i>	Гиперинфляция	iqtisodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.
<i>Davlat byudjeti</i>	<i>state budget, local budget</i>	Государственный бюджет	haddan tashqari inflyasiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilshning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.
<i>Devalvasiya</i>	<i>devaluation</i>	Девальвация	asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.
<i>Deflyasiya</i>	<i>deflation</i>	Дифляция	mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.
<i>Depozitlar</i>	<i>deposits</i>	Депозиты	inflyasiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.
			omonatga asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftardagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan

<i>Dividend</i>	<i>dividend</i>	<i>Дивиденды</i>	qimmatbaho qog'ozlar (aksiya va obligasiya). hissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi bo'lib, aksiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.
<i>Diskont</i>	<i>dicount</i>	<i>Скидка</i>	markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.
<i>Daromad</i>	<i>income</i>	<i>Доход</i>	ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda)
<i>Yopiq iqtisodiyot</i>	<i>closed economy</i>	<i>Закрытая экономика</i>	tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.
<i>Jami band aholi</i>	<i>band employees</i>	<i>Общая численности занятого населения</i>	band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.
<i>Ishsizlik</i>	<i>unemployment</i>	<i>Безработица</i>	aholining iqtisodiy faol qismi ish topa olmasligi, mehnat rezerviga aylanishi.
<i>Ishsizlikning tabiiy darajasi</i>	<i>natural rate of unemployment</i>	<i>Естественный уровень безработицы</i>	– real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. SHuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyasiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YAMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.
<i>Ish haqi</i>	<i>wage, nominal import</i>	<i>Зарплата</i>	pul, qiymat shaklidagi ish haqi.
<i>Import</i>		<i>Импорт</i>	mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtin tejashga, xalq xo'jaligi, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini

Investisiya

investment

Инвестиция

muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investisilarning moliyaviy va real turlari mavjud.

ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizda o'zgarishi.

*Inflyasiya
darajasi*

rate of inflation

*Уровень
инфляции*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Halq bilan muloqot va inson manfatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola. –Т.:ОО‘МТВ, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar
3. Kvint V.L. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti: dayjest./ V.L.Kvint. Toshkent: Tasvir, 2018, -160 b.
4. To‘xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermakov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari.-Т.:”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 280 b.
5. Беркинов Б.Б., Каланов Б.З. и др. Национальная экономика.: учебное пособие.-Т.: ТГЭУ, 2010. 583стр.
6. Албегова И.М., Емцов Р.Г., Холопов А.В. Государственная экономическая политика.-Москва МГУ.Изд.”Дело и сервис”, 1998 -320 стр.
7. Харченко Е.В., Вернакова Ю.В. Государственное регулирование национальной экономики: учебное пособие.-М.КНОРУС, 2011. 328 с.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Т.: O‘zbekiston, 2018.-76 b.
2. O‘zbekiston strategiyasi. Taraqqiyot strategiyasi markazi. Ijtimoiy – tahlil jurnali. 2018 y. 1-2- 3-sonlari. www.strategy.uz.
3. Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: Дарслик. З-нашр, қайта ишланган. – Т.: Иқтисодиёт, 2018.-226 б.
4. Ишмухамедов А.И., Аскарова М.Т. ”Ўзбекистон миллий иқтисодиёти”. Ўкув қўлланма. -Т. ТДИУ,2004.-286 бет.
5. Нуриев Р.Н. Социально-экономический потенциал устойчивого развития. Учебник.”Университетская книга”, 2008, -1120 стр.
6. Ломакин В.К.. Мировая экономика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. -735 б.
7. Кудров В.М. Мировая экономика. – М.: Дело 2008.-528 б.
8. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705)
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
13. Mirziyoyev SH.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'rzasidan "**2017–2021 yillarda O'zbekistoni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi**" "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 30 iyuldag'i PQ-4795-sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil 23 sentabr

Axborot manbalari

1. www.web-of-science.com.
2. www.economics.ru.
3. www.lex.uz.
4. www.zionet.uz.
5. [5.www.market.ing.ru](http://www.market.ing.ru).
6. www.stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.
7. www.ekonomics.uz
8. www.ved.ru
9. www.ser.uz
10. www.tdiu.uz
11. www.bank.uz
12. www.unese.org/env/esd/ – BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

